

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA URTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrası**

**Psixologiya yo'nalishi magistranti**

**Toshtemirova Maftuna**

**Maktabgacha yosh davri bolalarida ma'naviy va estetik sifatlarni  
shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari**

**Andijon – 2014 yil**

# **Maktabgacha yosh davri bolalarida ma'naviy va estetik sifatlarni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari**

## **MUNDARIJA:**

### **Kirish: Muammoning dolzarbligi**

#### **1.BOB. O'quv va mehnat faoliyatida shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish ijtimoiy psixologik muammo sifatida .**

1.1. Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatining psixologik adaptatsiya xususiyatlarini jaxon psixologlari tomonidan o'rganilishi.

1.2. Kichik maktab yoshi davrining psixologik xususiyatlari va yangilanishi.

1.3. O'quv va mehnat faoliyatini shakllanishining yoshga xos psixologik jihatlari

#### **1 -BOB bo'yicha xulosa.**

#### **2.BOB. Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar.**

2.1. Kichik maktab yoshi davrida o'quv motivlarining shakllanishi va adaptatsiyaning xosil bo'lishi

2.2. Kichik maktab yoshi davrida mehnat faolitiga o'rgatish va adaptatsiyaning shakllanishi

2.3. O'quv va mehnat faoliyatiga adaptatsiya shakllanishining psixologik tadqiq etish usullari

#### **2 -BOB bo'yicha xulosa.**

#### **3.BOB. Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatiga adaptatsiya xosil bo'lishini eksperimental taxlil qilish**

3.1. Boshlang'ich tajriba usullari va olingan natijalarni psixologik taxlil qilish.

3.2. Kichik maktab yoshi davrining etakchi faoliyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar

#### **3 -BOB bo'yicha xulosa.**

#### **Xulosa.**

#### **Tavsiya.**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.</b>	
<b>I BOB</b>	<b>O'quv va mehnat faoliyatida shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish ijtimoiy psixologik muammo sifatida .</b>	
<b>1.1</b>	Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatining psixologik adaptatsiya xususiyatlarini jaxon psixologlari tomonidan o'rganilishi.	
<b>1.2</b>	Kichik maktab yoshi davrining psixologik xususiyatlari va yangilanishi.	
<b>1.3.</b>	O'quv va mehnat faoliyatini shakllanishining yoshga xos psixologik jihatlari	
	<b>Bob bo'yicha xulosa</b>	
<b>II BOB</b>	<b>Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar.</b>	
<b>2.1.</b>	Kichik maktab yoshi davrida o'quv motivlarining shakllanishi va adaptatsiyaning xosil bo'lishi	
<b>2.2</b>	Kichik maktab yoshi davrida mehnat faolitiga o'rgatish va adaptatsiyaning shakllanishi	
<b>2.3</b>	O'quv va mehnat faoliyatiga adaptatsiya shakllanishining psixologik tadqiq etish usullari	
	Bob bo'yicha xulosa	
<b>3-BOB.</b>	<b>Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatiga adaptatsiya xosil bo'lishini eksperimental taxlil qilish</b>	
<b>3.1.</b>	Boshlang'ich tajriba usullari va olingan natijalarni psixologik taxlil qilish. 3.2. Kichik maktab yoshi davrining etakchi faoliyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar	
<b>3.2</b>	Kichik maktab yoshi davrining etakchi faoliyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar	
	<b>XULOSA.</b>	
	<b>TAVSIYA.</b>	
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi:** Mustaqillik tufayli Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda. Jamiyatning yangilanishi talim-tarbiya sohasini o'zgarishini, unga yangicha munosabat va yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda Xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar birinchi navbatda shaxsni aqliy va ma'naviy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgandir. Shaxsning aqliy imkoniyatlarini avvalo, to'g'ri baholash va uni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltirishi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limida tub islohotlar ro'y bermokda, ya'ni ta'limning mazmuni, uzluksizligini ta'minlab boradigan yangi metodik texnologiyalar, amaliyot uslublari joriy etilmokda. Respublikamiz Prezidenti va xukumatning ta'limni rivojlantirish, yosh avlodga jaxon andozalariga mos ravishda bilim, malaka va ko'nikmalar berish, ularni ona-Vatanga, milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga sadoqat ruxida tarbiyalash borasida ko'rsatayotgan doimiy amxo'rliqi tufayli ta'lim-tarbiya ishlarining bugungi xolati tubdan o'zgarmokda. Eng asosiysi, mamlakatimizning xali jaxon amaliyotida kam uchraydigan betakror milliy modeli tuzildi va xayotga joriy etildi. Qabul kilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Konun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'quvchilarning axloqiy tarbiyasida o'zining milliy asoslanganligi, noyobligi va insonparvarligi hamda ertangi kunga mo'ljallanganligi bilan xayotimizda o'z o'rnini topdi. Yukoridagi konun va dasturlarda e'tirof etilganidek, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas'ul bo'lgan jamiyat a'zolari, birinchi galda yoshlarda sog'lom e'tiqodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni e'zozlaydigan, o'z kasbining moxir ustasi bo'lgan malakali kadrlarni etishtirish ziyolilar, ota-onalar, murabbiylar oldiga jiddiy vazifalarni qo'yadi. Jamiyatimiz yangilanishiga va istiqboliga xizmat qiladigan milliy dasturning o'z vaqtida ishlab chiqilganligi va amalga oshirilishi voqelikka aylandi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Kelajak bugundan boshlanadi. Xozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan 'ech narsani ayamaymiz».

Mustahkam ildizga asoslangan milliy modelimiz ta'lim-tarbiya so'asida yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu imkoniyatlar ayniqsa, o'quvchi shaxsi va uning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularga o'quvchining ijodkorligi, mustaqil fikrlashga imkoniyat tudiruvchi mu'itni yaratish, milliy qadriyatlarimizdan foydalanish va boshqalar kiradi. Yoshlarni milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi ruhidada tarbiyalash ma'suliyati ustozdan o'z faoliyatini va o'quvchilarga munosabatini taxlil qilish, yangi davrga mos ish uslublarini qo'llashni talab etadi. Ma'rifatli, insonparvar muallim-ustozgina yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib tarbiyalashga qodirdir.

Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Buyuk ma'aviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyunlashtirish asosida ja'on andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish» bugungi kunning muhim vazifalaridandir. Chunki davlatimiz kelajagi 'ozirgi yosh avlodning

sof dunyoqarashi, har bir fanni chuqur o'zlashtirishi, yangi-yangi kashfiyotlar qilishi, yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochishi bilan bog'liqdir.

Ta'lim sistemasini rivojlantirmay turib, yangi hayot qurish mumkin emas. O'quvchi shaxsi xususiyatlarining muhim tomonini uning ma'naviy va siyosiy e'tiqodi, dunyoqarashi tashkil qiladi. O'quvchi yoshlarda Vatanga, xalqiga, ona-yurtiga, o'lkasiga, muxabbat, me'natsevarlik, insonparvarlik, halollik, rostgo'ylik, a'loqiy poklik, kamtarlik, xato va kamchiliklarga nisbatan murosasizlik, do'stlik, o'rtoqlik, qardoshlarga birdamlik kabi yuksak a'loqiy fazilatlarni tarbiyalash va bu a'loqiy fazilatlarni yoshlarning ichki e'tiyoji bo'lib qolishiga erishish bugungi kunning muxim vazifasidir.

Boshqacha qilib aytganda, kichik maktab yoshdagi o'quvchilar shaxsini har jixatdan etuk qilib tarbiyalash, ularda xayotga, milliy-madaniy merosimizga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, ularning ma'naviy sog'lom, ruxan tetik rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish zarurati tadqiqot muammosini aniqlashga imkon beradi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir

Bu davrda bolalarning o'z-o'zini anglash, atrof-muxitni idrok etishi ularning ijtimoiy munosabatlarga kirishishini ta'minlaydi. Bu esa yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvini rivojlantirishdagi dolzarb masaladir. Ayni shu muammolar yechimi doirasida biz o'z fikr-muloxazalarimizni va o'z munosabatimizni **Shaxs shakllanishida o'quv va mexnat faoliyatiga psixologik adaptatsiya xususiyatlari ( kichik maktab yoshi davri misolida )** ” mavzusini taxlili asosida bildirmoqchimiz. Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, biz kichik maktab yoshi davrida bolalarni o'quv va mehnat faoliyatga o'rgatib borishning ijtimoiy psixologik jixatlarini va bolalarning shaxslararo munosabatlar tizimida o'z xatti xarakterlarini anglab yetish, mehnat va o'qish faoliyatlarining birgalikda shakllantirishda bola psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy psixologik tadqiqotlar asosida o'rganish muammosi ilmiy ishimizni dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, o'rganilayotgan mavzu hozirgi davr talabi nuqtai nazaridan o'ta dolzarb bo'lib, o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini ob'ektiv baholashga o'rgatish va undan keng foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muxim omili bo'lib xizmat qiladi. **Mavzuning ishlanganlik darajasi.** Bolalarning o'quv faoliyati bilan ularni mehnat faoliyatga o'rgatish va mehnatga munosabat motivlarini shakllantirish borasida jaxon psixologlaridan ko'plab olimlar ish olib borganlar.ularning tadqiqot obe'kti sifatida mexnat va o'quv faoliyatini ilmiy va amaliy o'rganish maqsadi bo'lganligi uchun kichik maktab yoshi davriga xos adaptatsiya bo'lish sababini o'rganishga nisbatan jiddiy yondoshildi Ularning tadqiqotlarida kichik maktab yoshi davrida mehnatning moxiyatini o'quv mashg'ulotlarida doiiy tushuntirib borilishi va ularning ijtimoiy ajamiyatini anglanganlik darajasi, bolaning keyingi ijtimoiylashuvida muxim o'rin egallashini isbotlab berganlar. Shu o'rinda

ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishga odatlantirish bolaning bog'cha yoshidan ko'niktirish zaruriyligi ta'kidlanadi.

Aqliy xatti-xarakatlarni bosqichli shakllantirish. (P.Ya.Galperin. N.N. Tallizina), Ta'limda o'z-o'zini boshkarish (A.Verbitskiy), Ta'limda kontekstual yondashuv.( Z.I.Kal'mikova.) kabi ilmiy izlanishlar natijalari bugungi fan psixologiyasining rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqda. Mamlakatimiz miqyosida ushbu muammoning o'rganilishi katta ilmiy nazariy va ilmiy amaliy ahamiyatga egadir. Shu bois ham izlanishlarimiz davomida ushbu muammoning motivatsiyasi, psixoprofilaktikasi, kichik maktab yoshiga xos mehnat va o'quv ko'nikmalarining psixodiagnostika va psixokorreksiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarning kamligiga guvoh bo'ldik.

**Tadqiqotning maqsadi** – psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda kichik maktab yoshi davrida ta'lim va mehnatnin birgalikda shakllantirishning shaxs faoliyatidagi ahamiyatini nazariy va amaliy taxlil qilish .Shaxs rivojlanishida o'quv va mehnat faoliyatining o'rnini zamonaviy metodikalar asosida tadqiq etish. Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatga adaptatsiyaning shakllanish xolatlarini o'rganish va diagnostikasi va korreksion usullarini tizimlashtirishdan iboratdir.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

- 1.Mavzuga oid adabiyotlarni to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish
- 2.Mexnat va o'quv faoliyatining kichik maktab yoshi davriga xos xususiyatlarini psixologik va dinamik statistik tahlilini amalga oshirish.
3. Mexnat va o'quv faoliyatining kichik maktab yoshi davriga xos adaptatsiya xususiyatlarning psixologik profilaktikasi, psixodiagnostikasini aniqlash.
- 4) Olingan empirik natijalarni matematik-statistik xisoblash va taxlil qilish.

**Tadqiqotning ob'ekti**- Kichik maktab yoshi davri o'quvchilarining o'quv va mehnat faoliyatisha adaptatsiya jarayoni.

**Tadqiqotning ba'zasi** : Andijon shaxar 8-son umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilari.30 nafar ishtirokchilar.

**Tadqiqotning predmeti**- Kichik maktab yoshi davrida shaxs sifatida shakllanishi va ularning mehnat ,o'quv faoliyatiga moslashish jarayoni. Shuningdek, yoshlarni o'qishga bo'lgan munosabati ularni mehnat faoliyatiga qiziqtirish, o'qish va mehnat faoliyati bilan ko'proq shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish masalalaridir

#### **Tadqiqotning farazi.**

##### **Agar**

- 1.Ta'lim tizimida faol o'qitish metodlari va mehnatni shakllantirish jarayonini amaliy mashg'ulotlar asosida ko'proq tashkil etilsa, uni takomillashtirishga va samaradorligini oshirish ehtimoligiga ega.
2. O'qitishning adekvatligi yani obektga nisbatan muvofiqligi fanni o'zlashtirish va amaliyotga qo'llashda xal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

3. Bolani mehnatga o'rgatish va uni ta'lim tarbiyasiga ota –ona, maxalla maktab hamkorligini rivojlantirish orkali ijobiy xislatlarni shakllantirish imkoniyati oshishi mumkin.

1) Kichik maktab yoshi davrida bolalarning qiziqishlari , xatti-xarakatlari beqaror bo'ladi, shu nuqtai nazardan ularnimehnatga qiziqtirish muxim rol o'ynaydiyuagar ularning faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga tarbiyachi va pedagoglar, ota onalarning hamkorligini doimiy taminlanishi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

Ushbu muommo bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini xajmi va salmog'i bilan belgilanib, xozirgi kunda bu muommo etarli darajada ishlangan deb bo'lmaydi. Chunki ko'pchilik olimlar kichik maktab yoshi shaxsini kognetiv, emotsional-affektiv tomonlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borganlar, ularni ho'uv vamexnat faoliyatiga moslashish faoliyati motivlari esa deyarli o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan tado'io'otimizning ilmiy yangiligini o'uyidagilar belgilab beradi deb aytishimiz mumkin.

1. Mavzuga ta'luqli birlamchi manbaalar taxlil qilinganligi hamda umumlashtirilganligi.
2. Eksperiment o'tkazish uchun original materiallar to'planganligi hamda izlanish ob'ektlariga va sub'ektlariga muvofiqlashtirilganligi.
3. Kichik maktab yoshi davrining psixologik xususiyatlarini riaojdanishi darajasiga khra ularning ho'uv va mexnat khnikmalarining shakllangaligini isbotlanganligi.
4. O'quvchilarning fikrlashi o'sganligi, hamkorlik imkoniyatlarining ro'yobga chiqarilganligi, ularning mexnatga munosabat motivlarining rivojlantirilishi, o'qish va mehnatning mazmunini bola ongiga ijobiy xususiyatlarining singdirilishi.

### **Tadqiqotning metodologik asoslari.**

Jaxon psixologiyasidagi ilg'or konsepsiyalar, yondashuvlar, ilmiy psixologik prinsiplar, qonunlar, qonuniyatlar, mexanizmlar; sifatida klassik psixologiyadagi shaxsni o'rganishga haqqoniy va shaxslilik nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning faolligi va taraqqiyot tamoyillari hamda psixik hodisalarni tadqiq etishga kompleks yondashish (B.G.Ananov), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev), tizimli yondashish (B.F.Lomov)lar xizmat qildi. Izlanishlarimizda O'zbekiston hukumati qarorlari, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risidagi g'oyalariga asoslandik. Shunigdek, shaxsning faoliyatda shakllanishi nazariyalari (L. Vigotskiy, D. Elkonin, A. Leontev, G. Andreeva va boshqalar), O'zbekistonlik psixologlarning bola shaxsini tadqiq etish buyicha ishlab chiqqan nazariy yondashuvlari (M. Davletshin, G. Shoumarov, E. Goziev, V. Karimova, B. Qodirov, N. Sog'inov va boshqalar) ham tadqiqotimizning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

### **.Tadqiqotning metodlari.**

Mexnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari asosan, kuzatishlar va pedagogik tajribalarga tayanadi. Ta'lim olishga bo'lgan qobiliyat - o'quvchining o'quv va mexnat ko'nikmalarining diagnostika qilish orqali o'rganiladi. Jumladan, aqliy rivojlanish darajasini aniqlashdagi omillar esa, ortiqcha predmetni olib tashlash metodi; analitik-sintetik xususiyatlar taxlili; ortiqcha tushunchani topish metodikasi; o'quvchining mavxum va so'z-mantiq tafakkurini diagnostika qilish; ortiqcha tushunchalarni topish bo'yicha misollar; tushunchalarni taqqoslash; o'quvchidagi elementar fikrlash ko'nikmasini aniqlash; o'quvchining o'quv materialidagi muxim va asosiy belgilarni ajrata olish xususiyatlarini diagnostikasi; oddiy va murakkab analogiya metodlari orqali aniqlanib, xozirgi zamon o'quvchisining o'quv va mexnat malakalari borasidagi ijobiy va salbiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, tadqiqotimiz davomida quyidagi metodlardan foydalandik: kuzatish, suxbat, savol javob, mehnat ko'nikmalarini shakllantiruvchi metodikalar, psixodiagnostik testlar, mehnat malakalarini aniklovchi metodikalar. psixologik sifat taxlil qilish metodikalari. ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil etish

### **Himoyaga olib chiqilayotgan xolatlari**

1. kichik maktab yoshi davrida o'quv va mexnat faoliyatiga adaptatsiyasini yoshga xos xususiyatlari, kichik maktab yoshi davridagi bolalarning biologik, ijtimoiy -psixologik, individual psixologik o'ziga xos xarakterga egaligi bo'lishi bilan bog'liqdir. Ushbu xususiyatlarni tadqiq etish, adaptatsiyani shakllantirishda sabab va motivlarini aniqlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Kichik maktab yoshi davrida bolalarning o'quv va mexnat jarayoniga moslashishida xissiy -emotsional soxadagi o'zgarishlar kuzatiladi

3. Psixologik profilaktika tadbirlar o'quvchilarni o'qishga va ijtimoiy foydali mexnatga moslashtirishda pedagoglar, psixologlar ota-onalarning mas'uliyat xissini to'la qonli darajada his eta olgan taqdirdagina hamkorlikda amalga oshiriluvchi kompleks chora tadbirlarini o'z ichiga oladi.

### **Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati**

1) Ta'lim jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy materiallar bilan psixologiya soxalarini boyitilishi, umumlashtirilgan nazariy va amaliy materiallardan dasturlar, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalar tuzishda ma'ruza o'qishda foydalanish

2) Kichik maktab yoshi o'quvchilarida mehnatga va o'quv faoliyatiga nisbatan ko'nikma va malakalarning shakllantirilishi,

3) Boshlangich sinf o'qituvchilari uchun amaliy mashg'ulotlarining nazariy manbaalar bilan uyg'unligini ta'minlanishi.

4) Kichik maktab yoshi o'quvchilari uchun o'quv ko'rgazma materillari bilan ta'minlanishi. Mehnatga muxabbat ruxida, ularni mehnatsevarlikka o'rgatish, qiziqish va extiyojlarini shakllanishi darajasida mehnat va ta'limga yo'naltirish



**Tadqiqotning tuzilishi.** Kirish, 3 bob 7ta bo‘lim, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **1.BOB. O‘quv va mehnat faoliyatida shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘rganish ijtimoiy psixologik muammo sifatida .**

### **1.1. Kichik maktab yoshi davrida o‘quv va mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini jaxon psixologlari tomonidan o‘rganilishi.**

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi maktabgacha yoshdagi bolalar munosabatga kirishi va o‘z –o‘zini anglash xususitlarini va uning nazariy asoslarini qator qirralarini o‘z ilmiy izlanishlarida o‘rganganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muxitga va o‘z-o‘ziga nisbatan ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi asosida o‘z-o‘zini anglashi va idrok qilishi uning bilish faolligini rivojlanishi masalasi xorijlik ayrim psixologlar, xususan, DJ.Piyaje, D.El’konin, S.Muxina D.Mayers, V.Kvinn, R.Beyron, D.Richardson, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarga kirishishida idkorning o‘rni muammolarini sobiq sovet psixologlaridan G.Andreeva, V.Trusov, T.Yemel’yanova, L.Petrovskaya, A.Motev, M.Nevson, I.Jaspars, J.Jodlet kabi rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o‘rganilgan.

Bulardan tashqari, bola aqliy taraqqiyoti va bilish faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarning roli, bola ijtimoiy munosabatlarga kirishida tashqi ta’sirlarni tadqiq etish muammosi oxirgi yillarda rus va sobiq Ittifoq olimlari L.S.Vigotskiy, D.B.El’konin, Yu.Alyoshina, V.Boyko, A.Belkin, I.Kon, S.Kovalyov, I.Golod, A.Xarchev, L.Gozman, Z.Yankovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarning predmetiga aylantirilgan. Olimlar tomonidan to‘plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan katta ahamiyatga ega. Chunki ularning natijalari bugungi kunda bolalar psixologiyasini o‘qitishda, bola aqliy rivojlanishi komponentlarini o‘rganishda xizmat qilmoqda. Shu bois ham, mavjud muammoni o‘rganish zarur. Ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyolik olimlardan V.Polvonova, M.Beysenova, M.Davletshin, E.G‘oziev R.Samarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham bolalar aqliy taraqqiyotida munosabatlarga kirishish xussiyatlari, idrok qilishi va o‘z-o‘zini anglash muammolari, bilish faolligini oshirish muammosi, undagi psixologik va ijtimoiy omillarning ta’lim va tarbiya jarayoniga qay darajada ta’sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan qisman o‘rganilgan. Bundan tashqari, maktabgacha yosh davrlarda bola aqliy rivojlanishi jumladan, ta’lim-tarbiya munosabatlarining xarakterini belgilovchi o‘zaro munosabatlarning u yoki bu jihatlari mamlakatimizdagi psixolog, sotsiolog, pedagog olimlarning ilmiy monografiyalari va tadqiqotlarida o‘ziga xos tarzda talqin etilgan (R.Jumaev, A.Xolbekov, A.Begmatov, M.Bekmurodov va boshqalar). Lekin maktabgacha yosh

faolligini rivojlanishida o'zaro munosabatlarga kirishi xususiyatlari va maktabgacha yosh davrida o'z-o'zini anglash jarayoni yetarli tarzda o'rganilmagan.

Ekspperimental va nazariy tekshirishlar o'tkazilgan maktablarda o'qish faoliyatining asosiy nazariy muammolarini ishlab chiqqan jamoat psixologlari nazariyasi faoliyat va psixikaning birlik prinsipidan samarali foydalanganlar. Ammo umumiy nazariyani o'qitish mumkin, qo'llanilishi ma'lum oldini olish choralari nafaqat maktab ta'limining, balki o'qitishning boshqa turlariga kattalar tajribasi asosida qurilgan. Ma'lumki olimlar ta'lim va uning shakllari rivojlanishi, borasida o'z fikrlarini berib, ko'plab tadqiqotlar olib borganlar. Ularning fikrlari va ishlab chiqqan usullari asosida bugunsh ta'lim tizimi taraqqiy etib bormoqda.

Yuqoridagi savollarga javob aynan to'g'ri bilim olishga yo'l ko'rsatadi. Bu muammo yechimi bilan yirik psixologlar 50 - yillarda tadqiqot ishlari olib borganlar. Xususan, P.Ya.Galperin va uning shogirdlari «Qanday qilib, inson ongidan tashqarida bo'lgan, uning aqli ichki bo'lib qolgan, ya'ni uning ongi maxsuli, uning aql xususiyatiga aylanadi?», - degan savolga javob izlashi asta-sekin quyidagi xulosaga olib keldi: P.Ya.Galperinning aqliy xarakatlarning shakllanish konsepsiyasi xaqidagi ma'lumotlarni keltiradi. Bu konsepsiya katta umumpsixologik ahamiyatga ega, chunki u yuqorida quyilgan savollarga javob berib qolmay, balki xayvonlar psixologiyasidan farqli bo'lgan, inson psixologiyasi evolyutsiyasi tamoyillarini, psixologik faoliyat turlari va shakllari, uning qonuniyatlari hamda shakllanishi xaqidagi ma'lumotlarni ham o'zida mujassamlashtirgan. Bu nazariyalar bilan bog'liq holda o'ylangan xarakatlarni shakllantiruvchi faoliyat - o'qish faoliyati deb ko'rib chiqilgandi. O'ylangan xarakatlar - insonning xar bir amaliy va bilishga yo'naltirilgan faoliyati, individual tajribada shakllanib, istalgan bir qator o'zgarishlarni boshidan kechiradi. P.Ya.Galperin konsepsiyasida o'qish maxsus xarakatlar turi sifatida ko'rib chiqiladi, ularni bajarish o'quvchida yangi bilim va malakalarni xosil qiladi. Shu sababli, bu nazariya tarafdorlari o'qish maqsadi bu bilimlar bilan ishlay olish, lekin faqat bilimlarni o'zi kifoya emas, - deb bilishadi. Ular bir o'qitish insonni «nimadir qilishga o'rgatish»ni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bunda o'z kasbiy vazifalarni behato bajaradigan mutaxassislik uchun, amalga oshirishning qaysi elementlari mustaxkam yo'riqnomalar bo'lib hisoblanishini bilish lozim. Bu elementlar to'plami (yo'riqnomalar), o'rganuvchining (faoliyatining yo'riqnomasi) o'rganish faoliyatining eng asosiy yo'riqnomasi bo'lishi lozim.

«Xarakatning asosiy yo'riqnomasi - bu faoliyat - xarakatini bajarayotgan kishining asosiy tayanchi bo'lib xisoblanadi». O'rganuvchi bu muayyan bir xarakatni bilmagani, va bu xarakatni bajarishga endi o'rganayotgani uchun ham, (o'rgatuvchi) o'qituvchi uning qo'liga ma'lum bir xarakatni bajarishda tayana oladigan yo'riqnomalarni berish lozim. Boshqacha qilib aytganda, biror bir faoliyatga ilk bora qo'l urayotgan kishi, agar qo'lida ma'lum bir asosiy xarakat yo'riqnomasi bo'lsa, u bemalol bu ishni to'g'ri lekin juda sekin bajara oladi. Shunday qilib, u xar qanday yangi ishni, xar bir yangi

faoliyatni bajarishga, u trigonometrik topshiriq, xox u orfografik jixatdan to'g'ri xat yozish, yoki yangi samolyotni yig'ish bo'lmasin psixologik xodisaning taxlilini bajarishga o'rganib oladi.

P.Ya.Galperin ta'kidlashicha - «Insonning xar bir xarakatining nazorat, bajaruv va mo'ljal qismlari mavjuddir. o'quv jarayonida o'quvchi yo'l-yo'riqni mo'ljalga qarab faoliyatni bajaradi va bu o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. Yo'riqnoma ham o'qituvchi tomonidan beriladi. Bu konsepsiya asosida o'qitish faoliyatini tashkil etishning yaxshi natija berishi nafaqat P.Ya.Galperin izdoshlari tomonidan, balki butun uning maktabi tomonidan ham isbotlangan. Ta'lim psixologiyasining yana bir yo'nalishi bo'lib nazariy yuksaltirishga asoslangan sub'ektning faolligi shaklli deb aytiladigan o'quv faoliyati xisoblanadi, u avlodlarning ijtimoiy tajribasi natijasida individual rivojlanish shartiga qaratilgan bo'ladi. D.B.Elkonin o'quv faoliyatining muxim qismi bo'lgan o'quv topshirig'ining yechimini topish natijasida faoliyatni bajaruvchi sub'ektning o'zgarishi, uning dunyoqarashi, bilimi, malakalarini shakllanishiga sabab bo'lishini ko'rsatib bergan. V.V.Davidov, o'quv faoliyati - bu nazariy bilimni egallashni o'zi, o'qish faoliyatining shakllanishiga esa mustaqil o'qish va ijodiy yondoshish sabab bo'lishi aniqlagan. D.B.Elkonin va V.V.Davidov 1960-1970 yillarda o'qitishni rivojlantirish tizimini ishlab chiqadilar va maktab amaliyotida sinab ko'rdilar. Uning asl moxiyati bo'lib nafaqat o'qituvchilarni o'quv jarayonida ma'lum bir bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni xar qanday ilmiy ma'lumot bilan ishlay olishga o'rgatish bo'lib ham xisoblanadi. Bu maktab namoyondalari fikr yuritishga o'rgatish lozimligini, ya'ni o'quvchilarda zamonaviy fikr yuritish asoslarini egallashlari ilgari suradilar. Boshqacha qilib aytganda, o'qishni shunday tashkil etish kerakki, doimo u «Rivojlanuvchi xarakterga» ega bo'lish lozim.

Demak o'qish - bu fikr yuritishga o'rganishdir. Rivojlanuvchi o'qitish g'oyasi o'sha yillarda boshlang'ich maktab dasturiga (uni egallab olish 3 yil maboynida bo'ladi 4 yil emas) va 5-8 sinflar (aloxida predmetlar) o'rganadigan aloxida fanlar dasturiga ham kiritilgan edi. 1996 yilda bu dastur bilan 1000 dan ortiq o'qituvchilar ishlagan. Elkonin - Davidov sistemasi bo'yicha eksperimental sinflarda «asosan o'quv faoliyatining shakllanish jarayonining tavsifnomasi, intellektual rivoji, o'quvchilar jamoasi va shaxsning rivojlanishi sifati bilan bu o'qitish jarayonlarining an'anaviy sharoitdagi rivojlantirish, o'qitish g'oyasi tizimi tavsifnomasi bilan ko'rib chiqilganda to'g'ri keladi». Bu natijalar tavsifnomasi an'anaviy o'qitish tizimida odatda rejalashtirilmaydi va o'qitish natijasi sifatida yuzaga chiqmay baholanadi. Elkonin - Davidov g'oyaviy tizimida o'qitish natijalari tavsifnomasi o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlarni oladi; a) o'qish faoliyatining shakllanganlik darajasi; b) o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi; v) o'quvchilar jamoasining va shaxsni rivojlanish darajasi; g) o'qitish oxirida o'quvchilarning bilim, malaka va egallagan ko'nikmalar darajasi. Biz ko'rganimizdek, tavsifnomalar ichida, deyarli yakka va asosiy an'anaviy tizimda o'qitishning sifati ko'rsatkichida bilim xajmi darajalari mavjud emas. Bundan ko'rinadiki, rivojlantiruvchi o'qitish tizimi tomonidan bilimning zarur va keraqlilari inkor etiladimi? Albatta yo'q,

bu yerda e'tibor bilim soniga emas, shaxsning qanday bilim, malaka va ko'nikmalar, uslublar va boshqa sifatli jihatlarini egallaganiga qaratiladi. Axir bilim shaxsni rivojlanishiga xissa qo'shish va faqatgina o'qitish maqsadi bo'lib qolmasligi kerak. Shunday qilib, o'quv faoliyati - sub'ekt faoliyatini o'zgartiruvchi, xech narsani bilmagandan biluvchiga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallagan shaxsga aylantirishdir. Shuning uchun ham o'quv faoliyati o'z-o'zini o'zgartirish, o'zini namoyon etish faoliyati deb aniqlanishi mumkin va buning predmeti sifatida o'quvchilarning ijtimoiy tajriba orttirish orqali egallagan tajribalarini olish mumkin. Ijtimoiy tajribaning egallangan bo'lagi va bu avvalgi tajribani o'zgartirish xisobiga o'quv faoliyatining maxsulini tashkil etadi. Yana bir bor ta'kidlash joizki: o'quv faoliyatining predmeti, maxsuli, maqsad va natijasi bo'lib faqat bilim berish hamda egallashgina emas, balki o'quvchining intellekti, shaxsiy sifatlari, va olgan bilimining natijasi bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalari xisoblanadi. o'quv faoliyatining asosiy vazifasi bo'lib o'quvchining ilmiy nazariyalari asosida mustaqil fikr yuritishga o'rgatish xisoblanadi.

Agar o'rta, oliy yoki boshlang'ich maktab fikrlashga o'rgatish lozim bo'lsa, u xolda buni qanday amalga oshirish lozim? Bu savolga javob berish uchun fikrlash psixologiyasidan kelib chiqish kerak. Zamonaviy ilmiy tasavvurlar bo'yicha fikrlash- bu shunday maxsus muammoning yechimiki, uning ba'zi shartlari yuzada yotadi, (yoki yuzaki) boshqalari esa mavjud bo'lmaydi. Fikrlash bu - predmet taxlilining kuzatishlardan yashirin bo'lgan munosabatlarni namoyish etishga (ochishga) qaratilgan psixologik faoliyatdir. Agar topshiriqning barcha shartlari yoritilgan bo'lsa, u xolda fikrlash talab etilmaydi va inson bu topshiriqni xotira yoki bevosita qabul qilish, shuningdek o'ziga xos qarorga olib boruvchi yo'l bilan xal etishi mumkin. Fikrlash topshiriq bo'lganda, (savol) tayyor javob na xotirada va na diqqatda bo'lmaganida ishga tushadi. Shunday qilib, inson muayyan vaqtda muammoli ko'ringan vaziyatga tushib qoladi, noaniq va noma'lum bo'lgan narsani yoritish fikrlashni taqozo etadi. Aynan shu narsaga talabalar va o'quvchilarni o'rgatish lozim. Fikrlashga o'rganish - bu bilimlar o'rtasidagi tafovutni yechish, o'quvchi ega bo'lgan va o'quvchi ega bo'lmagan ammo yuzaga kelgan muammo - topshiriqni yechishda unga asqotadigan bilimlardir. Bu boradagi tavsiyalar M.I.Maxmutovning «o'qitish muammolari» kitobidan o'rin olgan. Xuddi shu nom bilan chop etilgan I.Ya.Langerning brashyurasi ham mavjud. Ularning xar ikkisi ham pedagogik fanlar doktori bo'lib, vaziyatni «Pedagogik nuqtai nazaridan ta'riflaydi Langerning ta'rifiga ko'ra, - bu shunday o'qitishki, bunda o'quvchilar o'quv materiallari asosida tuzilgan tizimli muammolar va muammoli topshiriqlarni yechishga jalb etiladilar. Muammoli o'qitishda bilimlar o'quvchilarga tayyor xolda berilmaydi, - deb yozadi M.I.Maxmutov balki, muammoli vaziyat jarayonida ularning o'zi tomonidan o'rganish faoliyatida egallanadi. Psixologlar T.V.Kudryavsev va A.M.Matyushkin bu fikrni aniqlashtirgan xolda: muammoli o'qitish faqatgina o'quvchi oldiga muammoli vaziyatni quyish bilangina faollashtirilmaydi. Zamonaviy fikrlash psixologiyasining imkoniyatlari nafaqat o'quvchilar oldiga muammoli vaziyatni qo'yish, balki ular

uchun muammoni yechimini topish va bu muammo yechimini boshqarish imkoniyatini ham beradi. Demak, muammoli o'qitishning psixologik nuqtai nazaridan ahamiyatga molik tomoni bu o'quvchilarni oldiga faqatgina muammoli vaziyat-topshiriq qo'yish emas, balki bu muammolarni psixologik bilimning fikrlash qonuniyatlari asosida yechishga o'rgatish hamdir. Bunda o'qitish nazariyasida muammo, muammoli vaziyat, muammoli topshiriq, muammoli savol, muammoli mashg'ulot kabi tushunchalar ko'p uchraydi - xuddi muammoli o'qitish tamoyili sifatida. Bu tushunchalarga qanday ma'nolar singdirilgan? Muammo (grekcha - problema - topshiriq) - nazariy yoki amaliy savol, qaysiki unga tayyor javob yo'q, shuning uchun ham o'rganish, tekshirish javobni topish uchun kerak bo'ladi. Odatda kishi oldida muammolar biror bir eski metodlar bilan yechib bo'lmaydigan topshiriq paydo bo'lganda kelib chiqadi. o'qitish maqsadida o'qituvchi, metodik muammolari, metodist tomonidan o'quvchi oldiga atayin quyilgan bo'lishi mumkin. o'qitish jarayonidagi muammo hayotiy muammoning modelidir.

Muammoli vaziyat - bu sub'ektning muammo bilan to'qnashgandagi psixik xolati, u tomonidan qiyinchilik sifatida aniq yoki noto'liq idrok qilinayotgan va uni yechish uchun yangi bilimlar talab etilishi bilan bog'liq bo'lgan intellektual muammodir. Muammoli vaziyatda paydo bo'lgan yangi bilimlar sub'ektning egallashga qaratilgan extiyoji shaxsning o'rganishga bo'lgan faolligidir.

Muammoli vaziyat sub'ektning yuzaga kelgan muammoni o'rganishga bo'lgan munosabatini bildiradi, biroq bu shunday munosabatki, unga ko'ra uni yechish yo'lini bilmaydi, bu yo'lni esa topish lozim. Ammo topish extiyoji faqatgina muammoni aniq xis etishdagina yuzaga keladi. Gap shundaki, ma'lum bir muammoga duch kelgan sub'ekt uni ma'lum vaqtga qadar shunchaki bir qiyinchilik deb o'ylaydi, lekin muammo deb xisoblamaydi, qachonki qandaydir aloxida yo'l bilan yechish lozim bo'lgandagina muammo sifatida nazarda tutiladi.

Shunday qilib, ob'ektiv mavjud bo'lgan to'siq sub'ekt tomonidan muammo sifatida qabul qilinmasligi ham mumkin ekan. Axir fikrlash faoliyati sub'ekt muammoni aniq xis etgandagina ishga tushadi. A.N.Leontev tomonidan quyidagi misol keltiriladi; Aviomodel to'garagiga qatnashuvchi o'quvchilar katta qiziqish bilan uchadigan aviomodellarni yasar edilar. Instruktor ulardan uchish nazariyasini o'rganib kelishlarini talab etdi. Ammo, eng qiyin va mayda ishlarni ham bajargan o'quvchilar uchish nazariyasi bilan juda kam, deyarli qiziqmagan edilar. Nazariyani bilish zarurligi xaqidagi xech qanday tashviqot foyda bermadi va bolalar aviaadabiyotni o'qib turib ham faqat amaliyotga taalluqli bo'lgan joylarni tushinar va eslab qolar edilar. Nimaga bolalar nazariyani o'rgana olmadilar? Chunki uni bilmaslik ularni xech qanday muammoli vaziyatga quyimas va amaliyotda xalaqit bermas edi. Topshiriqni bajarishda quyidagi usul taqlif qilindi, ya'ni aviamodelni yasovchilar uni yasabgina qolmasliklari, balki uni uchirishlari ham lozim deb o'zgartirildi va natijada model 2 metr ham uchmay to'xtab qolganida, nega bunday bo'ldi degan muammoli vaziyat yuzaga keldi. Shunda instruktor ularga nazariyani tushuntirib berdi va endi

bolalar muammoli vaziyat yordamida nazariyani ham o'rganish lozimligi, uning ahamiyati qanchalik katta ekanligini tushinib yetdilar. Ko'pincha shunday bo'ladiki, avval to'la to'kis anglamagan qiyinchiliklar asta-sekin muammoli vaziyatga aylanadi va shaxsni fikrlash, faolligini oshirib, yangi bilimlarni, yangi uslublarni egallash extiyojini tug'diradi.

Psixologlar aniqlashicha, fikrlash jarayoni aksariyat xollarda muammo, savol, xarakatlanish yoki qarama - qarshilikdan boshlanadi. Aynan shunday muammoli vaziyatda sub'ektning fikrlash faoliyatining darajasi aniqlanadi. Ammo yuqoridagi fikrlar bilan xar qanday muammoli vaziyat fikrlashning faolligini ko'rsatib beradi deb ayta olmaymiz. Vaziyatni muammoli deb qabul qilishdan tashqari sub'ekt boshida qandaydir bilimlar zaxirasi bo'lishi lozim. Masalan, «referent gurux» nimaligini bilmagan talaba ijtimoiy psixologiyadan quyidagicha qo'yilgan savolga javob berolmaydi: bir vaqtning o'zida bir gurux ham «referent», ham «katta», ham «kichik» ham «professional», «tabiiy» bo'la oladimi? Bundan shuni anglash mumkinki, individ tomonidan muammoli deb qabul qilingan vaziyat xali to'g'ri yo'nalishda muammoni yechish uchun fikr yuritish imkoniyati bo'lmaydi. Unda boshlang'ich bilimlar zaxirasi bo'lmasa, u nima xaqida o'ylash, fikr yuritish lozimligini bila olmaydi. Demak muallif yoki o'qituvchidan muammoli vaziyatni yechish bilimlari agar avvaldan talabaga berilmagan bo'lsa, u xolda shu muammoli vaziyat bilan birga berilishini talab etish lozim.

Muammoli vaziyatlar ob'ektiv va kundalik hayotda juda ko'p yuzaga keladi, va bu sub'ektdan ishga ijodiy yondoshish va umuman to'g'ri fikrlashni talab etadi. Buning uchun yana oliygoxda o'qish davrida xarakatlar qarama-qarshiligidan kelib chiqadigan muammoli vaziyatlardan chiqib keta olishni ham bilish lozim.

o'qish jarayonida esa bunday muammoli vaziyatlar o'qituvchi, metodist, muallif tomonidan yuzaga keltiriladi. qilingan va qilinayotgan kasb-xunar qollejlari, akademik litseylar, viloyatlar markazlari va shaxarlarda tashkil etilgan Tashxis markazlari 9-sinfni tamomlagan yoshlarning iktidorli va layokatli, qiziqishlarini uz vaqtida aniklash, uni psixologik metodlar yordamida diagnostika qilishni amalga oshiradi. Uspirinlik davrida avvalo uzini anglashdagi siljish yakqol kuzga tashlanadi - uzining ruxiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini kobiliyat hamda imkoniyatlarini aniklashga intilish kuchayadi, ba'zan uz xususiyatlariga ortikcha baho berib manmanlik, kibrlanish illatiga duchor bo'ladi, ayrim uspirinlar esa aksincha, o'z imkoniyatlariga past baho kamtarona tutishga harakat qiladir.

## **1.2. Kichik maktab yoshi davriining psixologik xususiyatlari va uning yangilanishi.**

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan boshlanib to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola u maktab o'quvchilariga kuyiladigan xar xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, anikligi, uzining kuchliligi, tafakkurning yakqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzok muddatli va shartli barqaror bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda kata. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida xarakter qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini keraqli darajada rivojlanishini talab etgan xolda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofidaogilar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayoti tubdan o'zgarganini. unga yangi majburiyatlar nafaqat xar kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek. uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakllaridagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi.

Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'uydash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdaogilar unga yosh boladek emas. balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga kuo'ra xurmatga cazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xoxlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik o'ila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan xar bir o'quvchida psixik zo'urikish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida balki xatti-xarakterida ham yaxni ma'lum darajada ko'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikningsusayishida namoyon bo'ladi

Bu davrga kelib bola atrofidaogilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'z egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi.. Shuningdek u o'zini o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va xolatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-xarakterlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi



bolaman" emas, balki bu xatti xarakterlar o'zgar ko'z o'ngida qkanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanyotganida tayyorlanadi.

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi turli masalalar bo'yicha o'z fikrining bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar o'z yoshdagi normal rivojlanaetgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va boglovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgan ma'qul , qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib nutqni o'zlashtirish ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati borki bola nutqda fakatgina o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suxbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq ham shakllanishini boshlaydi. Yezma nutq jumllarni to'g'ri tuzish va so'zlarni ham to'g'ri yozishga ma'lum talablar kuyilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni kandy eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutq egallash asosida bolalarda turli tekstlar xaqida ma'lumot ham yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endi shakllana boshlagani bois bolada xali o'zi yozgan fikrlarni so'z va xarflarni nazorat etish malakasi xali juda kam. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniklash. fikrini bayon etish uchun material to'plash, asosiysini ajratib olish malum ketma-ketlikda materialni bayon etish, reja tuzish malakasi yuzaga keltiradi. Jumllarni to'g'ri tuzish, aynan mazmunga to'g'ri keladigan so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish ham, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z xolatlarini topa olish, to'g'rilay olish ham aqliy rivojlanishining ko'rsatkichlaridan xisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlash uchun muxim shart-sharoitlar yaratadi, xisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lamini kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular xar bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muxim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7-10 yoshdagi o'quvchining idroki uning xatti-xarakati, o'yini va mexnat faoliyati bilan bevosita bog'likdir. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmushi sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok kiladi.

O'qituvchi bolalarni yangi bilimlardan xabardor qilish, ularning bilim doiralarini kengaytirish, nutqlarini takomillashtirib borish orqali ularda tafakkurni va o'ziga o'zi baho berishni ham o'stiradi.

Quyi sinflardayoq bolalarni o'quv materialini tushunib va o'zlashtirib olishgagina o'rgatmasdan, balki ularni qiziqqan savollariga javob topishga ham o'rgatish kerak. Bolalar dastlab bu ishni o'qituvchining bevosita rahbarligida, so'ngra esa mustaqil ravishda bajaradilar.

Ta'limning dastlabki kunlaridan boshlab o'qituvchi bolani fikrlashga o'rgatish; tushuntirishga shoshilmasligi, balki o'quvchiga o'zi o'ylab ko'rishni taklif etishi juda muhimdir. Biroq o'quvchining o'zi tushuna olmagan, bitta ham tushuntirilmagan masalani qoldirib bo'lmaydi.

Xozirgi paytda bolalar maktabdan tashqarida, ya'ni radio, televideniya, kino, oiladagi suxbatlar va kitoblar orqali nixoyatda ko'p yangiliklardan xabardor bo'ladilar. Shuning uchun o'qituvchi xatto kichik yoshdagi o'quvchilar bilan olib boradigan ishida ham darsliklardagi materialning o'zi bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Ba'zan bolalar bilan barq urib rivojlanayotgan fan va texnikaning turmushimizga kiritayotgan yangiliklari haqida ommabop suxbatlar ham o'tkazib turish kerakki, ular bu haqida o'zlari tushunib oladigan to'g'ri tasavvurlarga ega bo'lsinlar. Bilimlarni kengaytirish o'quvchining aqliy kamolotiga yo'l ochib beradi. O'quvchilarni mustaqil baho berishga va uni nazorat qilishga o'rgatish zarur. O'qituvchi nimaga? Nima uchun? degan savollarga javob talab qilar ekan, bolalarning o'z muloxazalarini asoslab berishlariga, ularni amalda tekshirib ko'rishlariga, o'z fikrlarining to'g'riligini isbotlashga yoki xatolarni tan ola boshlashga erishishga intiladi. Boshlang'ich sinflardayoq maktab o'quvchilari o'qituvchilarigagina emas, balki o'zlariga ham savol berishga o'rganishlari kerak. Ularning bu savollarga mustaqil ravishda javob topishga intilishlari, so'ngra o'z fikrlarining to'g'riligini amalda yoki o'qituvchi bilan bo'ladigan suxbatdan tekshirib ko'rishlari nihoyatda muhimdir.

O'qish istagi o'quvchilarga, ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarga ta'lim berishning muvoffaqiyatini yangi mazmunga o'tgan hozirgi sharoitda o'quvchining mustaqil fikr yuritishi, mustaqil sur'atda bilim olishi tobora ko'proq talab qilinadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. O'quvchining mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatiga, mashg'ulotlarda o'zini qanday tutishiga tobora ko'roq etibor qilinadi.

Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. 7-10 yoshli bola albatta mantiqiy ham fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib ta'lim olishga senzativ bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki intellektual rivojlanish ijtimoi omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam - ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-xodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, xukm va xulosa chiqarish, taqqoslash taxlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlardan fark qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab

yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir. O'quv faoliyat psixik funksiyalarni yukori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin odatdagi xolat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yukori darajada tashkil etish hali birmuncha qiyinrok. 6,7-10,11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy xarakati intilgandagina yuzaga kelishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtieriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiersiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor xis-tuygular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektda uzok tura olmaydi. Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustaxkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mexnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo'lsa uni taqsimlash, ongli ravishda boshkarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz uz diqqatlarini intellektual masalalarga karata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yukori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab kiladi. Bolaning xaeli tevarak-atrof taasurotlari, tasviriy sanxat asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi. O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini eslab qolishini talab etadi. O'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi xaqida ko'rsatmalar beradi.. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga xarakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira shubxasiz ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish eslab qolishning asosiy sharti xisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishini so'raydi. Bu holat albatta biron-bir yordamchi qurollar- predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdiridagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirish mumkin. Aks xolda bu yoshdagi bolalar xali mustaqil tasavvur xarakatlari qilishga qiynaladilar. Psixolog J. Piaje tadkikotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan. Va bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligni bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishda, shuningdek ertak va xikoyalar tukiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab

yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar asosan real borlikni tasavvur etsalar boshkalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shunga bog'liq kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum obrazlar, s'yujetlardan foydalangan xolda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar asosida ularning qo'rquvni yengish, dust topish, xursandchilik xislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan xolatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mexribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma xavas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qaxramonlik qilishini tasavvur qiladi. Tasavvur bolani vaqtinchalik bo'shashiga va bu bo'shashish vaqtida ota-onasiz yashashini davom ettirish uchun kuch to'plashga imkoniyat yaratadi. O'z bolasiga doimiy baqiradigan asabiy ona o'z farzandining tasavvurida mexribon farishta, o'z onasini katta, qo'rkinchli xavfdan qo'tqarayotgan qaxramonlik yoki bolaga doimiy ravishda ozor berganligi uchun ham o'lib yotgan ona sifatida tasavvur etishi mumkin. o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon xolatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-xarakatlar motivatsiyasini tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur kilib atrof-hayotni chuqurrok bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat kiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar tafakkuri boshlang'ich ta'limining dastlabki davrlarda, asosan konkret, obrazli xarakterga ega bo'lib, ular o'zlari bevosita ko'rayotgan va eshitayotgan, umuman, bevosita idrok qilayotgan narsalari haqida amaliy fikr yuritadilar. Shu sababli bu yoshdagi bolalar o'zlari hali ko'rmagan, idrok qilmagan ko'p xodisa va voqealarning qanday sodir bo'lishini, ularning o'zaro bog'lanishini fikran ta'lil-sintez qilib ulardan to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar. Shuningdek, bu yoshdagi o'quvchilar o'zlarining qilayotgan xatti-harakati va ishlari qanday oqibatlariga olib borishini va undan nimalar kelib chiqishini ham aniq tasavvur qila olmaydilar.

Ta'limning samaradorligi o'qituvchining o'z amaliy ishiga bolalarning o'qishiga izchil va muntazam qiziqtirib borish usullariga juda ham bog'liqdir. O'qituvchining vazifasi – o'quvchida bilishga qiziqishni shakllantirish, yaxshi o'rganish uchun nima qilish kerakligini haqida ularga tegishli yo'l – yo'riq, ko'rsatma va maslaxatlar beradi. O'quvchilar o'zlari uchun mustaqil o'qib o'rganadilar. Bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish o'quvchilar uchun, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun, qiyin va murakkab mustaqil o'rganishda o'zini ko'proq shaxs sifatida namoyon etadi, shu sababli uning yangi materialini o'rganish uchun tanlangan yo'lni amalga oshirish va nazorat qilish qiyin. Lekin o'quvchilarni ba'zi biri mavzularni mustaqil o'rganishlari ularda mustaqil ishlash malakalarining hosil bo'lishi nuqtai nazaridan ham oliy qobiliyatlarini va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish nuqtai nazardan ham foydali va maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, birinchi sinfdan boshlab, bolalarga ular bajara oladigan o'quv topshiriqlari beriladi. Tajribalardan ma'lumki, bola kitobning g'oyaviy mazmunini

anglab olishga qiynaladi. Shuning uchun bolalar bop kitobni tanlab va o'qigan narsalari haqida suhbatlashib, mustaqil o'qishga bo'lgan malakasini tarkib toptirish va o'quvchilar kitobxonligining g'oyaviy maqsadini taominlash kerak.

Me'nat tarbiyasi bolalikdan boshlanadi. Dastavval o'z-o'ziga xizmat qilish, undan so'ng yasama o'yinchoqlardan «uy qurish», keyin ota-onalariga xo'jalik ishlarida yordam berish. Me'nat tarbiyasi maktabda davom ettiriladi. Maktabda mashulotlarning ma'lum qoidalariga rioya qilish, o'quv topshiriqlarini bajarish, me'nat darslarida, undan so'ng xunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita sanoatda elementar ishlarni amalga oshirish talab qilinadi. Me'nat tarbiyasining hamma davrlarida (oilada, maktabda, o'quv yurtida, sanoatda) me'natkash shaxsiy hislatlarining va uning me'natga bo'lgan qobiliyatlarini muvoffaqiyatli tarkib topishining asosiy psixologik shart – sharoitlar quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish faoliyatiga undovchi me'nat muxiti; mexnat harakatlariga tarbiyalovchi ta'lim; mexnatga psixologik jixatdan tayyorlash; o'qish va me'nat vazifalarini hal qilish uchun shaxs sifatlarini psixologik jixatdan safarbar qilish; samarali mexnat.

Ishlab chiqarish faoliyatiga undovchi mexnat muxitiga quyidagilar kiradi: tarbiyalanuvchi (bolani, o'smirni va katta yoshli odamni) birgalikda ishlaydigan kishilar guruhidaga yoki jamoasiga qo'shish; konkret me'nat majburiyatlarini aniqlash; ishni zarur moddiy vositalari bilan taominlash; me'natga jalb qiladigan tashqi sharoitni hosil qilish.

### **1.3. O'quv va mehnat faoliyatini shakllanishining yoshga xos psixologik jihatlari**

Jamiyat a'zolarining yangi ijtimoiy, siyosiy, xuquqiy munosabatlar jarayonlariga mos xulq normalari, xarakter xususiyatlarini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib turgan hozirgi sharoitda eng samarali faol ijtimoiy-psixologik usul sifatida o'yin faoliyatidan foydalanish katta amaliy samaralar berishi mumkin. Shu munosabat bilan biz boshlanich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini baholash dinamikasini o'rganish, ularni maxsus eksperimental sharoitlarda o'zgartirish maqsadida tadqiqot olib bordik. Tadqiqot davomida o'quvchilarning xulq-atvorlari turli faoliyatlarda davomli kuzatildi. Anketa yordamida maishiy sharoitlarda ota-onasiga munosabatlarida namoyon bo'ladigan o'quvchi xulqi aniqlandi. Rolli o'yin yordamida bolaning bajarayotgan roli bilan o'z xulqini taqqoslashi va nazorat qilishi orqali undagi tushuncha va tasavvurlarning rivojlanishi o'rganildi. O'qituvchilari bilan hamkorlikda treninglar orqali o'quvchilarning o'z-o'ziga bahosi ijtimoiy ustanovkalar shaklida mustahkamlandi. Pedagoglarning o'tkazilgan mashulotlar samaradorligi xususidagi fikrlari so'rovnoma asosida o'rganildi.

Individual yondoshishda har bir o'quvchi shaxsidagi mavjud ijobiy fazilatlar, chunonchi uning qiziqish xavaslari, sog'lom axloqiy intilishlari nazarda tutiladi. Maktab o'quvchisining o'quv ishlari jarayonida, kishilar bilan munosabatlarini murakkablashuv jarayonida o'qituvchi olib boradigan tarbiyaviy ishlar, o'quvchilarda zarur sifatlarni taraqqiy ettirish imkonini yaratadi. O'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda hal qiluvchi rolni o'qituvchi uning o'z predmetiga doir bilimlari, bolalar jamoasiga ra'barlik qilishning uddasidan chiqishi, maktab amaliy ishlari, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tajribasini ko'rsatish, bolalar bilan kundalik ishlash malakasi va uquvlari, ularda yangi odam shaxsining ijobiy hislatlarini tarkib toptirish ishlari, maktab predmetlaridan bilim olish va o'qitish metodikasi o'rgatishga nisbatan ancha sekin amalga oshiriladi. Ammo shuning bilan birga, o'rta umum ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya ishlari darajasini ko'tarish va yoshlarga g'oyaviy, siyosiy, me'nat, estetik hamda axloqiy tarbiya berishda birlikni taominlash bolalik to'g'risidagi qonunlarni har bir o'quvchining fikr-xayollarini, umid-orzularini o'qituvchi hisobga olishi kerak.

Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan bilimga bo'lgan qiziqish, ko'proq bilimga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquvchanlik juda sezilarli ravishda rivojlanadi. Kuzatishlar va maxsus ilmiy tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, qiziqishlarni paydo bo'lishi va o'sishga o'qituvchining maonaviy qiyofasi, uning bilimlarining chuqur va keng bo'lishi, o'quv materialini qiziqarli ravishda bayon eta olish, o'quvchilarni o'z darsiga, o'z faoliyatiga torta olishi katta ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchisining maonaviy qiyofasini tarkib toptirish, uning shaxsiy tajribasini shunday yo'lga qo'yish kerakki, bu tajriba ijtimoiy axloq norma va qoidalarini o'zlashtirib olish uchun qulay zamin yaratsin.

Shaxsiy tajriba va ijtimoiy talablar bir-biriga ta'sir ko'rsatib turgan vaqtda o'quvchi shaxsini tarkib toptirish jarayonida bolada uning xatti-harakatlarini hamisha harakatga keltiruvchi motivlarga

aylanib qolgan e'tiqod va ideallar sistemasi yuzaga keladi. Ana shu asosda shaxsning axloqiy barqarorligi, ya'ni odamning o'zi o'zlashtirgan printsiplariga va ularga mos keladigan xatti-harakatlariga har qanday sharoitda ham sodiq bo'lib qolish qobiliyati paydo bo'ladi. Xullas, o'quv topshiriqlarini yechish va o'quv faoliyatini maxsus tarkib topishi, uning tuzilish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. o'quv topshirig'ining mohiyati nimada? Psixologlar o'quv topshirig'ining qat'iy farqlanishi xilma-xilligi va hayot davomida yuzaga keladigan amaliy mashg'ulotlarning turli tumanligi xaqida ko'p yozishgan. Agar xar bir amaliy mashg'ulot yechilishi aloxida fanlarning o'zgarishiga olib kelsa, va bu maqsad bo'lsa, unda o'quv topshirig'ni yechishdan maqsad predmetni o'zlashtirish emas, balki bu o'zgarishlarni kiritish uslublarini o'zlashtirishdir.

### **Bob bo'yicha xulosa.**

Boshlanich sinf o'quvchilar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarni ijtimoiy tasavvurlarni to'g'ri shakllantiruvchi bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish ularda ma'naviy tasavvurlarning bo'lishini kafolatlaydi. Bunda milliy qadriyatlar, boy ma'naviy merosga aloqador xulq formalarini tarbiya etish katta ahamiyatga ega.

Bola shaxsi taraqqiyotida eng mas'uliyatli va muxim hisoblangan kichik maktab yosh davrida o'quv va mehnatga moslashish shakllanishi va shunga aloqador ustanovkalarining barqarorlashuvi, jamiyatning axloq normalarini o'zlashtirish uchun sezitiv - qulay bo'lishini nazarda tutganda, bu yoshdagi o'quvchilarni maxsus dasturlar vositasida ijtimoiy xayotga tayyorlash davlat ahamiyatiga molik vazifadir.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chikib, ular uchun tayyorlangan aniq maqsadli, ijtimoiy tushunchalar elementlari mavjud psixologik rolli-vaziyatli o'yinlar stsenariylarini ko'proq yaratish va ular bilan pedagoglarni muntazam tanishtirib borish zarur.



## **2.BOB . Kichik maktab yoshi davrida o‘quv va mehnat faoliyatining shakllanishi.**

### **2.1. Kichik maktab yoshi davrida o‘quv motivlarining shakllanishi.**

Tarbiyalovchi ta'lim o'zlashtirilgan bilimlarni shaxs xususiyatlariga aylanishi jarayonidan iboratdir. Bunday bilimlar ishonch - e'tiqodga aylanadi, bilimlarning ko'lemi bilimdonlikka ko'tariladi, malaka va o'quvlar odat, maxorat va professional (kasbiy) qobiliyatlar darajasiga borib etadi. Psixologik jixatdan tayyorlash deganda, o'qish yoki ishlab chiqarish mehnatning ma'lum turiga nisbatan qobiliyatlarni faollashtirish tushuniladi. Psixologik jixatdan safarbar qilish ma'lum faoliyatni bajarish uchun shaxsni vaqtincha faollashtirishdan (asosan irodaviy sifatlarini) iborat.

Shuningdek, o'quvchilarda ta'lim bilan birgalikda mehnatga bo'lgan qobiliyatni rivojlantirib borishimiz kerak. Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida, ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga zo'r e'tibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun zarur bo'lgan va o'z kuchlariga loyiq keladigan ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. Bu narsa yana shuning uchun muhimdirki, birinchi sinf o'quvchilarining mehnat faoliyatlarida shaxsiy motivlar aniq nomoyon bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchisi o'zi uchun bo'lgan narsani katta qunt bilan berilib tayyorlaydi. Boshqalar uchun ishlashga esa, unda hali tajriba yo'q. Bolalar o'z mehnatlari bilan tevarak atrofdagi boshqa odamlarga foyda keltirishlarini sekin-asta anglay boshlaydilar.

Keyinchalik bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatni shunday turiki uning bevosita maqsadi yangi-yangi informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlari shakllarini o'zgartirishdan iboratdir. Sub'ektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyat ta'lim jarayonidir.

o'qish - bu mustaqil faoliyatni bajarish, buni o'quv materialiga ijodiy yondashmasdan, o'quv topshirig'ini o'zini taxlil qilish va o'zini baholay bilmasdan bajarib bo'lmaydi. O'qishga o'rganish - bu o'quv faoliyatini bajarish o'quvchi uchun zarur topshiriq bo'lib xisoblangan.

Ta'lim maktabda yetakchi faoliyat bo'lib u quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

a) ma'lum bir faoliyat turini muvafaqqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimdir);

b) faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul turli harakatlarni o'zlashtirishi (bu jarayonning mahsuloti ko'nikmadir);

v) ko'zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va harakatni tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuloti malakadir).

Insonning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha xarakterlar ta'lim bilan bog'liq bo'ladi.

Bolalarning qiziqish va qobiliyatlari o'qish-o'rganish jarayonida namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi. Bilish, iroda va hissiyot jarayonlari ta'lim jarayonida yuzaga chiqadi va taraqqiy etadi. Bolalar aqliy jihatdan ancha rivojlanibgina qolmay, o'quvchilarning xarakter xislatlari ham o'zgaradi, axloqiy jihatdan shakllanadi. Ta'lim-ta'rbiya jarayonida psixikaning qanchalik tez va samarali taraqqiy etishi o'qituvchilarning diqqat –e'tiboriga va o'ylab ish tutishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

**Motiv** –bu, o'quvchilarning ijod qilishi uchun uyg'otiladigan ijodiy mahsuldir. Motiv va maqsad. Mavsad tassavurli va hunarli ijod mahsulidir. Maqsad qonuniyatga asosan o'quvchiga ham tushunarli hol. Dars vaqtlarida maqsad aniq shakllarda qo'yilishi shart. Motivlar esa o'qituvchiga qolaversa o'quvchiga ham hamma vaqt tushunarli bo'lavermaydi

Motiv qanaqa yo'naltirganiga qarab u bolada turlicha fikr hosil qiladi. Bola misol yechadi va maqsadi masalani yechimini topish. Motivlar esa har xil bo'ladi. Masalani yechimini o'rganish o'qituvchini ovorv qilmaslik yoki ota onasini yaxshi baholar bilan xursand qilish –motivi bo'lishi mumkin. Anig'i shuki hamma hollarda ham maqsad bitta bo'lib qolaveradi. Motiv o'qish jarayonidagi xarakteriga qarab o'zgaradi, ya'ni bolaning o'qishga munosabati ham shunga bog'liq. Agar bolani jazolanmaslik, yomon baho olmaslik uchun o'qiyotgan bo'lsa, u majburiy o'qish bo'lib, bola qoniqish va xursandchilikdan chegaralangan bo'ladi.

A.N.Leontev motivni 2 guruhga tushunarli va real ta'sirligiga bo'ladi. O'quvchi o'qish keraqligini tushunadi, lekin bu o'quvchi o'qish bilan shug'ullanmaydi. Tushunarli motivlar bir qancha hollarda real ta'sirligiga aylanadi. A.N.Leontev bir misolni ko'rib chiqadi. Birinchi sinfga borgan bola uy ishini qilishga harakat qiladi. U dars qilish keraqligini bilmasada, ota onasini hafa qilib qo'yishini, qoniqarsiz baho olishi mumkinligini, o'qish uning vazifasi ekanligini tushunadi. Lekin u dars qilishi uchun bu narsalarning hammasi kamlik qiladi. Taxmin qilamiz bolaga shunday deyiladi: Dars bilmaguningcha, o'ynashga chiqmaysan. Bu harakatdan bola ta'sirlanib darsini qilishi mumkin. Bola ongi uchun boshqa motivlar ham bor (yahshi baho olish, o'z burchini ado etish), lekin bo'lar faqatgina tushunarli motivlar. Bo'lar o'quvchi uchun psixologik ta'sirli emas, xaqiqiy tushuncha esa boshqa motiv. O'ynab kelish imkonini olish. Bola bu motivni qondiribgina qolmay, balki darsini ham a'lo darajada bajarib, qoniqarli baho oladi, qandaydir vaqt o'tib bola o'z xohishi bilan dars tayyorlay boshlaydi. Yangi amaliy motiv hosil bo'ladi. Yaxshi baho olish uchun dars qilyapti– ana shunda dars qilishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Oxirida A.N.Leontev shunday deydi: “Bola tarbiyasida tushunarli va real amaliy motivlarni namoyon qilish, tarbiyaning oxirgi cho'qqisi emasmi. Shular orqali hayotda kerak bo'ladigan boshqa motivlarni yuzaga chiqarish, bola qobiliyatini shakllantirishdir”.

Motivlarni qabul qilinishi va qabul qilinmasligi mumkin. Bolalarda istar-istamas xohish A.N.Leontev fikricha yaxshi yoki yomon motivatsiya maxsuli bo'lishi mumkin. O'qish jarayoni bolada bir motiv bilan kechmaydi. Bir birini to'ldiruvchi bir qancha bir butun tizimdan iborat. O'qish

jarayonida hamma motivlar ham bir hil motiv ko'rsatavermaydi. Biri — asosiylari, boshqasi – ikkilamchi bo'ladi. Hamma motivlar ikkita katta guruhga bo'linadi: bir xillari o'qish davomida namoyon bo'lib, darsni qabul qilish va tushunish bilan bog'liq. Boshqalari o'qish jarayonidan tashqarida bo'lib, faqatgina o'qish natijalariga bog'liq bo'ladi. Bunday motivlar keng ijtimoiy bo'lishi mumkin (maktabni a'lo baholarga tugatish, oliy o'quv yurtlariga kirish, kelajakda yaxshi ishlash), hamda qisqa muddatli motivlar bo'ladi; omadlilik motivi.

Tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, o'qish jarayonida o'qitish motivlari hech qanday ahamiyatga ega emas. Bizning tekshirish natajalariga ko'ra 1-o'rinda keng ijtimoiy motivlar, 2-o'rinda qisqa muddatli, 3-o'rinni o'quv bilim motivlari egallaydi.

Keng ijtimoiy motivlar: motiv tizimida deydi L.I.Boxovich – kichik maktab yoshida o'quv jarayonini uyg'otishda ijtimoiy motivlar yuqori o'rinni egallaydi-ki bolalarning o'qish jarayonidagi ijobiy qarashlarni belgilashi mumkin.

Bola o'qishda jamiyatdagi o'rnini tushunadi va bu narsa bolani shaxsan maktabda o'qishga tayyorligini ko'rsatadi. Bu motivlar ijtimoiy ta'sir natijalari. Ota onalar, bolalar bog'chasi bolada ijtimoiy turg'unlikni tug'dirganlar. Bola kelajakda yaxshi inson bo'lishi, madaniyatli va bilimli bo'lishi uchun shqishi keraqligini tushunadi.

Kichik maktab bolasi hozirgi kuni balan yashaydi. Ana shuni nazarda tutgan holda dars jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'zining natijalarini ko'rsin, har kun darsda olayotgan bilimini ko'rayotgani, bilimi oshayotganini tushunishi lozim. Bola o'ziga o'zi qilayotgan ishlari, nimalarni biladi-yu, nimalarni bilmaydi, qaysini o'qidi-yu, qaysilarni o'qishi keraqligini belgilab olib, o'ziga hisobot berishi lozim. Burch va javobgarlik motivi birinchi kundan bolalar tomonidan tushunilmaydi. Hamma kichik maktab yoshidagi bolalar javobgarlik xissini tushunish tushunmasligi tadqiqotda aniqlandi. Faqatgina 25% bolalar "javobgaglik bu – o'qituvchi talab qilgan barcha narsani bajarish kerak"ligini aytishdi. Ular javobgarsizlikni yaxshiroq tushunishar ekan. (33% bolalar javobgarsizlik – vazifalarni bajarmaslikni tushunishar ekan).

Ko'pgina hollarda bolalar o'z kamchiliklarini ko'rmaydilar. Kichik yoshdagilar ularni tuzatishga yo'l topa olmaydilar. Ko'p hollarda bolalar o'z xatolarini boshqalardan ko'radilar. Shuning uchun bolalarda o'qishga nisbatan ijobiy xissini sezish, javobgarligini oshirish maqsadida maxsus ilmlardan foydalanish kerak.

Javobgarlik yondoshishni taqlif etadi, o'qishning muhimligini tushunish, bilim olish bu shaxsiy ish bo'libgina qolmay, butun davlat qiziqishi ham ekanligini (kichik maktab yoshidagi bolalar bunga kam e'tibor qaratadidar), lekin uning zaruratini tushunish ham kamlik qiladi. Javobgarlik xissini tuyish ularga o'z-o'zini boshqarish va o'zigi baho berish darajasini beradi. Shuning uchun o'qitishni tushunarli tashkil qilish, rejalashtirish, darsdan chalg'imagan holda uning bajarilishini kuzatib borish kerak.

Javobgarlik xissini sezishni aql va bilimda ko'rsata olish va bu bilan motivlar navbatiga amal qilish demakdir.

Motivatsion o'qitishda maqsadning roli: Kichik maktab yoshidagi bolalar qandaydir qismda o'zlarini boshqarib, nima maqsadda kelganliklarini tushuna oladilar. Agar berilgan material qiyin bo'lib, bolaning qiziqishi bo'lmasa, bu qiziqish umuman so'nganli ko'zga yaqqol tashlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerak motiv o'rnida kelib, bolada alohida bajarishni namoyon qiladi. Lekin u o'z o'zidan paydo bo'lmaydi. Mo'ljalga olishning paydo bo'lishi uchun o'qituvchining maqsadi motivlarga asoslangan, o'quvchining esa uni qabul qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Maxsus o'tkazilgan tajribada 30 foiz 1-sinfda to'liq maqsadni ko'zlab, ekspertlar tomonidan qo'yilgan maqsad bajarildi. Maqsadni amalga oshirish uchun ko'zlangan marraga yetish uchun bola nafaqat ishtirok etishi, balki tahlil qilishi va muhokama qila olishi kerak. Eksperimentatorlar bolaga 7 minut ichida 8 mashqdan 3 tasini bajarishni taqlif qilishdi. 31tadan faqat 14tasi taqlif qilingan ishni o'zi bajardilar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, hamma bolalar ham eksperimentatorlar tomonidan qo'yilgan maqsadni qaytara olmaydilar (buni 12 ta bola bajardi, 7 tasi mashqni bajarishga doir savol berishdi), 15 tasi misol ularga yoqqanligi va qiyinligini aytishib, shuni asosiy deb, qabul qilganliklari diqqatga sazovordir. Bu esa misolni yecha olmay, ular oldiga qo'yilgan maqsadga amal qilmagan bolalar edi. Bu hol kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'p uchrab turadigan maqsadni aniqlashtira olmaslik bilan bog'liq. Shu hisobdan o'qish jarayonida maqsadni aniq, tushunarli va motivatsiyaga asoslangan bo'lishi kerak.

L.S.Slavina o'tkazgan tajriba shu maqsadga aniq yo'naltirilgan. U kichik yoshdagi o'quvchilarga bir xil yo'nalishni taqlif qiladi (aylana ichiga nuqta qo'yish, aylanalarga esa kvadratlarga qo'yilgan bo'ladi). Har bir kvadratta yuztadan aylana, hammasi bo'lib, bir varaqda 15 ta kvadrat yoki 1500ta aylana bo'ladi. Birinchi qismda bolalarga 2,5 ta oraliq yo'llanmasi beriladi. Tajriba o'tkazuvchi bolaga zarurat uchun kvadrat ichida juda ko'proq nuqtalar qo'yishni iltimos qiladi. Shu bilan birgalikda bola qancha xohlasa shuncha nuqta qo'yishi va qachon xohlasa ushanda to'xtatishi mumkinligini tushuntiriladi. Ikkinchi qismda esa maqsad aniq yo'naltirilgan edi. Nechta kvadrat ichiga nuqta qo'yilishi aytiladi, yoki oxirida bola ishni bajarishdan bosh tortadi, yoki ishga o'zgartirish kiritishni so'raydi. Sekin asta ish hajmi kamayib borishi kuzatiladi. Ikkinchi qismda bu natijalar o'zgarib, bolaning ish hajmi oshib, birinchi qismdan ko'proq ish bajaradi.

Shunda aniq bo'ldiki, ish hajmi qo'yilgan vaqt bilan bog'liq. Agar maqsad zaruratsiz bo'lsa, u ishga mutlaqo yordam bermas, yoki uning ko'tarilishi qiyin bo'ladi. Shundan keyin bola ish bajarishdan bosh tortadi. Agar mashq aniq bo'lib, qisqa vaqt ichida bajarilsa, bola keragidan ko'proq ish bajarishga harakat qiladi. So'zsiz bu maqsad aniq yo'nalganligi va motivatsiya an'anasini boshqarilishi, uni aniq jarayonga yo'nalishiga omil borligini ko'rsatadi. Bundan ham yaxshiroq natija olish uchun esa, maqsad

yoʻnalganligi ish boshidan boʻlishi va samarasi ham shunga yarasha boʻlmogʻi lozim. Bola bajaradigan maqsadsiz yoʻnaltirib, zerikmasdan bajarishi mumkin.

Maqsadning yoʻnalganligi ishning hajmiga bogʻliq boʻlib, uygʻonuvchi kuchni hosil qiladi. Agar ish haddan ortiq katta boʻlsa, maqsad boʻlmagandek tusga kirib oladi, kichik maktab yoshidagi bolalarda qiziqarsiz ish bilan maqsadsiz ish bir hil proporsiyaga ega.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda motivatsion baholar katta ahamiyatga ega. Tekshiruvlar shuni koʻrsatadiki, birinchi va ikkinchi sinf oʻquvchilari bahoning rolini yaxshi tushunadilar. Bilim va baho oʻrtasidagi bogʻliqlikni kamchilik deb tushunib yetmaydi. Koʻp bolalar baholar ota-ona, oʻquvchi yoki oʻqituvchini quvontirishi kerak yoki hafa qilishi mumkin. Hamma bola bahoning qadrini tushunmasa ham, koʻpchiligi uning uchun ishlashadi. Agar baho olish yoki qiziqish uchun misol yechish oʻrtasida tanlash imkoni boʻlsa, koʻpchilik baho yoʻlini tanlaydi. Baho bolaning jamiyat oldida uning obroʻsini koʻtarishi mumkin. Shuning uchun ular oʻz xohishlari bilan emas, oʻz mavqelarini saqlash uchun ham intiladilar. Kichik maktab yoshidagi bola namunali baho olish uchun harakat qilib, oʻz natijasini baholashga erishadi. Sh.A.Amonashvili fikricha, 78 foiz bola olgan bahosidan norozi holda uyga ketadilar. Ularning fikricha uning javobi qoniqarli boʻlib, unga qoniqarsiz baho berilgan deb oʻylaydilar. Boshqalari esa oʻz omadsizliklariga koʻnikib, ishonchlarini yoʻqota boradilar va olayotgan baholariga farqsiz boʻlib qoladilar. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalar shu baho bilimi va darsga berilgan koʻrsatkichligini tushunishi lozim. Koʻrsatilgan motivatsiya oʻqituvchi uchun diqqatga sazovor boʻlganda, bolada egoistlik holatlari yuzaga kelib, yomon tomonga burilishi mumkin. Gruziyaning koʻpgina maktablarida yoʻlga qoʻyilgan kichik maktab oʻquvchilarini baholamaslik tajribasi qiziqarli. 1964 yildan beri oʻquv jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalar baholanmaydi. Gruzin psixologlarining fikricha, baholashda bolaning asosiy motivatsiya xususiyati gavdalanadi. Bola unga qoʻyilgan bahodan yuqori baho olishini istaydi, qiziqishi soʻnadi. Bunday hol bolaga yomon taʼsir qiladi. Bahosiz oʻqitish esa, bola hayajonini yoʻqotib, oʻqish, bilish motvini kuchaytiradi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning oʻqishga munosabati boshqa guruh motivlariga ham tayanadi, oʻqishning borishi bilan uning qabul qilinishi bilan bogʻliq Bu bilishga qiziqish shu yoʻldagi qiyinchiliklarni yengib oʻtish bu ishlarda faollikni koʻrsatish, bu guruh motivlarining oʻsishi bilishga ehtiyojlilik darajasiga bogʻliq. Bu his bilan bola maktabga keladi. Boshqa tomondan darsning tashkil qilinishi va borishi muhim rol oʻynaydi. Motivatsiyada asosiy rol oʻqishning tashkillanishi borishi bilimga qiziqishni kuchaytiradi.

Oʻqish mazmuni bilan bogʻliq motivlar oʻqitishda kichik maktab oʻquvchilarini nima oʻziga jalb etadi va ular qanday darajaga koʻtarila oladilar.

Qabul qilish obʻekti nazariy jihatdan tushunarli boʻlishi shart. Tushunish jarayoni oʻquvchi holatini koʻrsata bilishi kerak. Maxsus oʻquv jarayoni qabul qilishning natijasi boʻlmogʻi lozim. Ular oʻz ichiga oʻquv holatlarini, oʻquv masalalarini baholash va kuzatishi kerak. V.Davidovning fikricha bu shartlarga

amal qilish ichki motivatsiyani namoyon qiladi. Haqiqiy bilimga qiziqish natijalari bilimga umumiy yo'l topishda bilinadi. Uning qiziqishlarini oshirishi o'qishga bo'lgan xohishini ham oshiradi. O'qish davridagi motivlar kichik maktab yoshidagi qiziqishlarini bilishga biror ijodga, bir nima bilan shug'ullanishga qiziqish orasidagi farqlarni ajrata bilishlari lozim. Birinchi sinfga bola katta qiziqish bilan borib, o'z xohishi bilan dars qiladi. Dars vaqida o'z ishini to'xtatmaydi. U chizishni, o'qishni, rasm solishni yaxshi ko'radi, bundan zavqlanadi. Bu ishlarni o'z xohishi bilan qiladi. Bunday hollarda hech qanday emotsiyalar bo'lmaydi. Demak bu yerda xaqiqiy bilimga intilishni ko'rib bo'lmaydi. Lekin shu o'rinda ishini sevib qolishi, xato qilib hayajonlanishi mumkin.

“Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, - deb yozadi V.V.Davidov, keragicha rivojlanmagan, yetilmagan bo'lsa, keyingi nohaqlilik oqibatida psixologik quvonchni yo'qotadi. Birinchi va ikkinchi sinflarda bolalarda o'qishga nisbatan qoniqarlilik bo'ladi. Uchinchi sinfga kelib, u o'zgaradi. O'qishga qiziqishi so'nib boradi. Bu an'anani L.I.Bojovich va Ye.I.Kirichuk va boshqalar izlab topdilar. Ikkinchi sinfdagi yuqori natija uchinchi sinfdagi tushib ketishi ma'lum bo'la boshladi. Iqtidorli sinflarda ham bu narsa ko'zga tashlandi. Bu narsa dars jarayonining tashkillashtirilishida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

L.I. Bojovich o'quvchi qiziqishining tushib ketishini qiyin materiallarini o'zlashtirishga, bolalar yaxshi tayyormasligini ko'rsatdi. Bolalar maktabga birinchi qadam qo'yanlarida, o'qituvchining har bir gapini so'zsiz bajaradilar. Ularning bajarishlari natijasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabati yuzaga keladi. Ta'lim jarayonida bolalar o'zlarini o'z ma'suliyatlarini sezib, dars davomida o'z fikrlarini aniq bera oladilar. Bu usulda tekshirilayotgan bola o'z ishi bilan do'stining ishini solishtirib, keyingi ishlarida izlanishlari kuchayib boradi. Jamoa bo'lib ishlashda jamiyatning fikrini yuzaga chiqaradi. Bola boshqalarga yordamga oshiqadi. Nafaqat o'zi, balki boshqalar oldidagi javobgarlik hissini seza oladi. Agar jamoa rivojlangan bo'lsa, ularda o'qishga nisbatan qiziqishning o'sishiga olib keladi. Shu yo'sinda bolalarda ijobiy tomonga motivatsiyalarni o'stirish imkoni tug'iladi. Avvalombor psixologiyaning qaysi soxasida ishlashdan qat'iy nazar, o'qituvchi o'qish faoliyati nazariyalarining asosiy qonun qoidalarini bilish zarur. Bu bilim egallab olish qoidalari va o'qitish metodikalarini to'g'ri tuzish uchun juda muxim. o'qish faoliyati psixologiyada ilmiy tushuncha sifatida bir yaqqol ifodaga ega emas. psixologiyaning «klassik» nazariyalarida - bu «kichik maktab yoshdagi yetakchi faoliyat», «ijtimoiy faollikning asosiy shaklli» sifatida e'tirof etiladi. D.B.Elkonin va V.Davidovning ta'kidlashicha o'qish faoliyati - bu o'quvchining nazariy bilimlar - o'zlashtirishga qaratilgan va fikrlashning o'sishini ta'minlaydigan faoliyatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. o'qish faoliyati o'quvchining o'zi amalga oshirib o'zini o'zgartirish uchun maxsus tashkil qilingan faoliyat bo'lagidir. o'qish faoliyatining muxim qismi o'quv topshiriq xisoblanadi. Topshiriq yechilish jarayonida, xar bir amaliy mashg'ulotdagi kabi, o'quvchi tomonidan o'rganilayotgan ob'ektda yoki bu xaqdagi tasavvurda ma'lum bir o'zgarishlar yuzaga keladi, ammo natijada sub'ektning o'zi o'zgaradi.

o'quv topshirig'i sub'ektda oldindan berilgan o'zgarish sodir bo'lgandagina yechimi topilgan deb xisoblash mumkin. o'qish faoliyati jarayonida (yosh avlod) o'quvchilar kattalarning tarbiyasiga tayanadi, o'rganadi. Xar bir yosh avlod dunyo xaqidagi bilimlarni bevosita uni o'rab turgan borliqdan oladi, ammo yoshlar bu bilimlarni o'zi yaratmaydi, balki ularni katta avlodlardan «narsa (buyumlar), maxsus tashkilot va yangi avlodning bu narsalar bilan bog'liq faoliyati orqali» oladi. Aynan mana shu «buyumlar bilan» maxsus uyushtirilgan faoliyati, insoniyat tajribasi, katta avlodning ana shu buyum - maxsulotni yaratish bo'yicha tajribasining egallashi o'qish faoliyatidir.

O'qish faoliyatining ahamiyati - bu «o'quvchilarni tashqi olam bilan bog'lovchi faoliyati»ning bevosita natijasidir. Bu o'quvchilar faoliyati bo'lib o'qituvchi tomonidan tashkil qilingan va u bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. O'quv faoliyati quyidagi umumiy tuzilishga ega: extiyoj - topshiriq-motivlar-xarakat-operatsiya. Extiyoj o'quvchining u yoki bu predmetni nazariy o'zlashtirishga qaratilgan o'quv faolligidir. Nazariy bilimlarga aniq bir predmet rivoji va kelib chiqishi xaqidagi qonun - qoidalar kiradi. Bo'larni faqat uyushtirilgan ta'lim - nazariy o'rganish faoliyatida o'zlashtirish mumkin. o'qish faoliyati tuzilishining muxim elementlaridan biri o'quv topshirig'idir. Uni bajarishda o'quvchilar aniq bir xarakat va operatsiyalarni bajaradilar. o'quv faoliyatlari xar - xil bo'lish mumkin, ammo asosiy motiv bo'lib (maxsus) o'rganishga qiziqish xisoblanadi. o'qish faoliyatining amalga oshirilishi o'quvchi tomonidan bajarilayotgan, ma'lum bir motiv bilan boshqarilayotgan o'quv faoliyati yoki o'quv topshirig'ini yechishga qaratilgan operatsiya tashkil etadi. Bu faoliyatning maqsadi - nazariy bilimni egalashdir.

## 2.2. Kichik maktab yoshi davrida mehnat faolinfuga o'rgatish

Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat bo'lib, u inson faolligining anglangan bir turiga kiradi. Mehnat inson uchun shaxsiy va ijtimoiy hayotida o'zini ro'yobga chiqarish va ko'rsata olish vosita hamda usulidir. Bu o'z navbatida uning muomalasi, o'zini va tashqi olamni anglashi, o'zini shaxs sifatida rivojlantirishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishida aks etdi. Bu vazifalarni bajarilishi mehnatning maqsadini tashkil etadi. 58-rasmda mehnat va uning asosiy vazifalari keltirilgan.

Mehnat funksiyalarining samarali amalga oshishi quyidagi omillarga bog'liqdir:

- 1) muayyan faoliyat uchun layoqatli kishilarni tanlash;
- 2) kasbiy tayyorgarlik;
- 3) mehnat jarayonini tashkil etish va rasional sharoitlar;
- 4) mehnat qurollarining qulayligi va samarali ekanligi;
- 5) ish ko'lamiga inson imkoniyatlarining mos kelishi;
- 6) mehnat xavfsizligi tizimi, kasbiy salomatlik va umrni saqlash, ishga layoqatlikni psixologik quvvatlash.

Mehnat (mazmuni, sharoitlari, maqsadlari) shaxs rivojlanishiga xizmat qilishi, unga quvonch, baxtni keltirishi va erishgan natijalaridan qoniqish hissini tuyishiga olib kelishi kerak.

Mehnat – inson imkoniyatlarining psixologik, fiziologik, kasbiy va boshqa jihatdan namoyon eta olish xususiyati bo'lib, u turli toifa odamlarda turlicha bo'ladi. Asosan, yoshga ko'rsatkichiga, kasbiy tayyorlik darajasiga, salomatlik holatiga bog'liq ravishda kechadi.

Mehnat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek shaxs psixik faolligining asoslarini mehnat faoliyatiga bog'liqlik tomonlarini o'rganish masalasi muhimdir. Unga ko'ra, mehnat faoliyati tashkil etuvchilarining tizimini ko'rib chiqish mumkin. Mehnat faoliyati tashkil etuvchilarining tuzilmasi 59-rasmda aks ettirilgan.

Mazkur rasmda keltirilgan chizma, ya'ni mehnat faoliyati subyekting chizmasi ergotik tizim deb ataladi (grekcha **yesgpn** – ish).

Mutaxassislik – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektni tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmuini tashkil etadi. Bu tushunchada mehnat faoliyatining turli tomonlari va turli darajasi aks ettiriladi:

- 1) mehnat obyekt va predmeti, uning mazmuni, shartlari hamda tashkiliy jihatlari;
- 2) maqsadli vazifa va mehnatning natijaviy xarakteri;
- 3) mehnat egasining xususiyatlari – uning bilimlari, malaka, ko'nikma, qobiliyatlari;
- 4) iqtisodiy va ijtimoiy tomonlari – ishga joylashish, moddiy ehtiyojlarni qondirilishi, ijtimoiy mavqeyning tasdiqlanishi;
- 5) faoliyat turi.



Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilandi. Mutaxassislik tushunchasi odatda konkret faoliyat turi (kasb o'zida) va xususiy xaraktersitikasini ifodalaydi. Mehnatning qay darajada bo'linish imkoniyatini aks ettiradi (masalan, vrach – kasbi, mutaxassislik – terapevt, jarroh, ko'z vrachi, kardiolog va boshqalar).

Bola shaxsining tarkib topishiga o'yin va o'qish – o'rganish har qancha ta'sir etmasin, bola shaxsi mehnatda takomillashadi.

Bolalar maktabga borganlarida mehnat uchun hali jismoniy va texnik jixatdan yetarlicha tayorgarlik ko'rmagan bo'ladilar. Ular hali o'z harakatlarini hamisha ham qismlarga ajratib va bir-biriga muvofiqlashtira olmaydilar, ularda ko'z bilan qo'l yetarlicha bir-biriga muvofiq tarzda ishlay olmaydi, kinestetik (muskul) sezgilari uncha o'smagan bo'ladi. Ammo 9 yoshga kirganda bolaning uncha murakkab bo'lmagan ishlarga jismoniy tayorgarligi ancha ortadi.

Boshlang'ich sinflarda bolalar mehnat faoliyatiga tayorlanadilar. Ular 1-sinfdan boshlab qog'oz, kartondan juda oddiy buyumlar tayyorlaydilar, shuni ham aytish kerakki, bu mashg'ulotlarga ular juda qiziqadilar. Birinchi sinf o'quvchilari ish jarayonining o'zi bilan mehnat natijalariga qaraganda ko'proq qiziqadilar, biroq keyinchalik ular o'z ishlarining sifatiga ham qiziqib qaraydigan bo'ladilar. Ular o'zlari yasagan buyumlarni namuna bilan taqqoslab ko'radilar va ishni aniq bajarishga intiladilar. Agar birinchi sinfda bolalar o'z xatolaridan ko'ra ko'proq o'rtoqlarining ishdagi kamchiliklarini sezsa ikkinchi va uchinchi o'quv yilida o'z mehnatlari mahsuliga ham ancha tanqidiy munosabatda bo'ladilar, uning sifatini baholashga ob'ektivroq yondoshadilar. Qo'lidan keladigan mehnat mashg'ulotlari bolalarda avvalo bu mashg'ulotlar harakatlanish bilan bog'liq bo'lgani uchun quvonch xislarini yuzaga keltiradi. Lekin tez orada maqsadsiz mehnat kichik yoshdagi o'quvchini qiziqitirmay qo'yadi. Agar u masalan tayyorlagan o'yinchoqlardan eng yaxshilari bolalar bog'chasidagi kichkintoylarga berilishini bilsa o'z ishiga zo'r mas'uliyat bilan kirishib ketadi va uni yaxshilab bajarish uchun bor kuchini ishga soladi.

O'qishning dastlabki yillaridanoq mehnat bolalarda shaxsning ehtiyoji tariqasida yuzaga keladi. Bunda kattalarga taqlid qilish ham foydali bo'lishi istagi ham katta rol o'ynaydi. Bu jixatdan kichik yoshdagi o'quvchining maishiy mehnati, oilada o'zidan kichik bolalarga qarab turishi, sinfni yig'ishtirishda ishtirok etishi, gullar va tirik burchak jonvorlariga qarashi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni faqat ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilbgina qolmasdan, ota-onalar bolalarda mehnatga mehr-muhabbat hamda odatlanishni qunt bilan tarbiyalab borishlari uchun ularga ta'sir ko'rsatib turishi ham kerak. Bolalarning mehnat tarbiyasiga sinf jamoasi ham ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi bir o'quvchining ishiga baho berar ekan, umuman, butun sinfning fikriga murojat etadi. Bundan tashqari, ko'pgina ishlar jamoat tarzda bajariladi.

O'qituvchi bolalarda ijtimoiy foydali mehnatga mehr-muhabbat va ishlay olish qobiliyatini tarbiyalashda ularni qiziqtirishga intiladi. Biroq ayni vaqtda o'quvchilarni ayrim mehnat operatsiyalarini bajarishda uyushqoqlik va izchillikka o'rgatish zarur. Bolalar yangi ishga berilib kirishadilar-u, lekin uni nimadan boshlash kerakligi, qanday material olish, qanday mehnat qurollaridan foydalanish va xokazolar haqida o'ylab o'tirmaydi. Ular o'z ishlarini rejalashtirishga, ishni belgilangan muddatda tugallash uchun vaqtlarini to'g'ri taqsimlashga uncha qodir emaslar. Shunday ham bo'ladiki, bolalar ishda tartibga rioya qilmay, hamma narsani sochib tashlaydilar, natijada mehnat o'ngidan kelmaydi, muvaffaqiyat ko'zga ko'rinmay qoladi. Bunday xollarda o'qituvchi bolalarga o'z mehnatlarini durustroq yo'lga qo'yish, uni o'ylab rejalashtirishda yordamlashish kerak. Agar ish yurishib ketadigan bo'lsa, unda o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonish hissi va uni oxrigacha muvaffaqiyat bilan yetkazish istagi paydo bo'ladi. O'qituvchi bolalarga boshchilik qilar ekan, ularni mustaqillikka o'rgatishi lozim. Tashabbus, ijodiyot, oqilona ravishda o'ylab olingan ishlar rag'batlantirilib borilishi darkor.

Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki ma'naviy ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdir. Mehnat faoliyati insonning asosiy faoliyatidir. Agar katta kishilar mehnat qilishdan to'xtab qoladigan bo'lsa, insoniyat zoti o'z hayotini tugatgan bo'lar edi.

Mehnat odam psixikasining tarkib topishi faktori sifatida bolalar hayotida ham muhim ahamiyatga ega.

Yosh bola ham tom ma'nosida mehnat qilmaydi. Uning mehnat jarayoni avvalo o'yin keyinchalik o'qish-o'rganish jarayoni bilan bog'liq xolda rivojlanadi. Agar yosh bolaga "ana uni menga olib kelib ber" – desangiz uni sizga qiynalib olib keladi. Bola bunda harakat qiladi va uni o'ynab bajarishi mumkin, lekin u o'z harakatida mehnat elementlarini bajaradi.

Mehnat ijobiy, ongli munosabatni tarbiyalashi lozim. Chunki bola mehnat qilib, avvalo qiyinchiliklarga bardosh berishga, o'z-o'zini boshqarishga, sabr toqatli bo'lishga o'rganadi. Keyinchalik kishilarning mehnatini qadrlashga, uni mohiyatini anglashga, undan zavqlanishga, jiddiy mehnatga muxabbat bilan qarashga, mehnatsiz baxtli bo'lish mumkin emasligini anglashga o'rganadi. Hammadan ham muhimi u mehnat qilib, undan zavqlanadi va mehnatni qadriga yetadigan bo'lib qoladi.

K.D. Ushinskiy (1860 yilda) "Mehnatning psixologik va tarbiyaviy ahamiyati" degan maqolasida bunday deb yozgan edi, mehnatning moddiy samaralari odamzod mulkidir; lekin mehnatning ichki, ma'naviy, hayotbaxsh kuchi odamzod qadr-qimmatining manbai bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga odob-axloq va baxt-saodat manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Ishlayotgan kishi uchun qilinadigan shaxsiy mehnatgina ana shunday hayotbaxsh ta'sir ko'rsatadi. Mehnatning moddiy samaralarini tortib olish, meros qoldirish, sotib olish mumkin, lekin mehnatning ichki,

ma'naviy, hayotbaxsh kuchini tortib olish ham, meros qoldirish ham, Kaliforniyaning jami tillasini berib sotib olish ham mumkin emas; bu kuch mehnat qilgan kishida qoladi.”

Darhaqiqat, bunday zavq faqat mehnat qilgan kishida qolar ekan, u shu kishining kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi. Biz yoshlarni yoshligidan boshlab mehnatga muhabbatini uyg'otishimiz va ularni mumkin qadar mehnatga ertaroq jalb qilishamiz, axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllanirib berishimiz, komil insonni tarbiyalashimiz hozirgi zamon talabidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat tarbiyasi bilan birga ijtimoiy ishlarda qatnashishi ham muhimdir, chunki u ham bola uchun mehnatdir. Bog'chada turli-tuman ishlarga qatnashishi, jumladan, guruhlarda navbatchilik qilish, gullarni sug'orish, plastilin va loydan buyumlar yasashda, qirqib yopishtirish, qurilish materiallari bilan ishlash mashg'ulotlarida tarbiyachiga yordam berish, mehnat anjomlarini, o'yinchoqlarni joy-joyiga qo'yish kabilar ham bolani mas'uliyatni his qilishga, o'z burchini anglashga, uni sadoqat bilan bajarishga o'rgatib boradi. Bolalar psixologiyasi taraqqiyot faktorlarini ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olish bilan birga, qaysi faktor qaysi faoliyatda faollik darajasida ekanligidan qat'iy nazar tarbiyada ularning ahamiyatiga, qudratiga asoslanadi. Psixologlarning ilmiy tekshirish ishlarida ayniqsa mehnat ta'limining psixologik asoslari haqidagi masala muhim o'rin olmog'i kerak. Maktablarimiz ishining bu sohasida psixologlar hali juda kam ish qilganlar: bunday tekshirish ishlari endigina boshlanmoqda, albatta, buni kuchaytirmoq kerak. Psixologlar o'quvchilar texnik bilim va masalalarni hosil qilish qonuniyatlarini, shuningdek iqtidor va malakalarni tez hamda puxta o'zlashtirishni ta'min qiluvchi omillarni o'rganishga e'tibor bermog'lari kerak. O'quvchilarda konstruktiv-texnik tafakkurni shakllantirishga alohida katta e'tibor bermog'i kerak. Mehnat ta'limi psixologiyasiga oid masalalar mehnat psixologiyasining boshqa masalalari bilan uzviy bog'langan holda hal qilinmog'i kerak. Hozirgi zamonda mehnat psixologiyasi masalalari texnika progressi va mehnat hamda ishlab chiqarishni ratsionalizatsiya qilish munosabati bilan dolzarb tus oldilar hamda pedagogik psixologiya masalalari bilan bir qatorda o'rin oldilar. Mehnat va ishlab chiqarish ta'limining eng ratsional metodlarini topish va tatbiq qilish uchun ilmiy tekshirish ishlarini olib borish kerak. Mehnat va ishlab chiqarish ta'limining amalga oshirilishi va umuman maktablarning qayta kurilish munosabati bilan psixologiya fani oldida bir qancha yangi, binobarin, yangicha munosabat va yangicha hal qilishni talab qiladigan muammolar maydonga keldi. Umumiy ta'limning mehnat ta'limi bilan munosabati haqidagi masalani bunday muammolar qatoriga qo'shish mumkin. Bu o'rinda nazariy bilimlar va umumiy aqliy taraqqiyot darajasi mehnat va ishlab chiqarish ta'limining muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilishini aniqlab olmoq kerak. Shuningdek, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilarning aqliy taraqqiyotiga, umuman ular shaxsining shakllanishiga qanday ta'sir qilishini ham aniqlab olmoq, kerak. Shu munosabat bilan o'quvchilar qanday sharoitlarda umumiy ta'lim predmetlaridan olgan bilimlarini amaliyotda muvaffaqiyatli ravishda tatbiq qila oladilar, ikkinchi tomondan, o'quvchilar

mehnat ta'limi jarayonida, u yoki bu material bilan ishlab (yog'och, metall va boshqalardan) muayyan buyumlarni yasay ekanlar, shu bilan ular o'zlarining nazariy bilimlarini qanday boyitadilar va o'z tafakkurlarini qanday rivojlantiradilar degan masalalarni ham ishlab chiqmoq kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasining va psixologlarining eng muhim vazifasi o'quvchilarni mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash muammosini hal qilishdir. Bu o'quvchilarda mehnat va mehnat kasblariga bo'lgan yo'nalish va qiziqishni shakllantirish hamda tarbiyalash demakdir. Bu o'quvchilarda, quyi sinflardan boshlab mehnatga nisbatan muhabbat va ishtiyoq uyg'otish demakdir. Ta'limning shu yo'sinda mehnatga yo'nalganligini vujudga keltirish o'quvchilarni kelajakdagi mehnat faoliyatiga tayyorlashning eng muhim sharti va birinchi bosqichidir.

Kichik maktab yoshi davrida mehnat faoliga o'rgatish bolani ijtimoiy foydali mehnatning mazmunini anglab yetishga tolib keladi. Mehnat psixik xolatlari: tayyorlik, tayyor emaslik, ilxom, ruxlanganlik, g'ayratlilik, lanjlik, loqaydlilik, ishchanlik, maxmadonachilik, charchoqlik, chidam, chidamsizlik. O'quv psixik xolatlari: xayajonli, ezilganlik, tormozlanganlik, berilganlik, xayolparishonlik, diqqat-e'tiborsizlik, e'tiborlilik, qiziqish, befarqlik. Ruxiy xolatning sifat xususiyatlari xilma-xil bo'lib, ular quvonch, qayg'u, tekislik, ruxiy ko'tarinkilik yoki tashvish, sarosimalik, bezovtalik va x.k. Ta'lim jarayonida ularning barqaror kayfiyatini vujudga keltirish-bilish faolligining negizi xisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchi ruxiy xolatlarini o'rganish, ularda o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi va bilish faoliyatining xar xil ko'rinishlariga ta'sirini aniqlash muxim ahamiyatga ega. Mehnat faoliyati o'quvchi shaxsiga xar tomonlama ta'sir kiladi. Xar tomonlama rivojlanish shaxsni tarbiyalashning asosiy sharti, shaxsning ongli faolligidir. Mehnatda o'quvchi shaxsining xarakteri va irodasi tarbiyalanadi, kuzatuvchanligi, diqqati rivojlanadi. Mehnat faoliyati o'quvchilarda narsalarning uzini va ularning shakllarini, xarakatlarini masofani va boshkalarni esda qoldirish bilan bog'liqdir. Odamning ongli va maksadga karatilgan mehnat faoliyati xar vaqt ma'lum motivlarning bo'lishini takozo kiladi. Mehnat faoliyatida motivlar odam extiyojlari sababli paydo bo'ladi. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishlari u yoki bu fanning uzlashtirishga intilishi, bilimlarini kengaytirish ham ma'lum motivlar asosida bo'ladi.

O'qish faoliyati jarayonida o'qish, urganish motivi uzgaradi va tarkib topadi. O'qish faoliyati dastlabki yillarda o'quvchi uyda uni urishmasliklari uchun, yaxshi baho olish maksadida o'qishi mumkin. Urta maktab yillarida o'quv predmetlariga differensial qiziqish paydo bo'ladi va shu asosda fan muammolariga qiziqish yuzaga keladi va natijada usmirlarda bilimga bo'lgan qiziqishlarini kondirishga karatilgan bilimlarni egallash motivlari paydo bo'ladi.

Ma'lumki 1997 yil 29 avgustda «Ta'lim tugrisidagi konun» kabo'l qilindi. Uning II bobida ta'lim tizimi va uning turlari anik kursatib berildi. Unga muvofik, ta'lim uz Davlat tili, dasturi va ta'lim muassasalarni bilan belgilanib, u yagona va uzluksiz ta'lim tizimidir. «Ta'lim tugrisidagi Konun»ga binoan, bolalar yoshligidan boshlab to ishlab chikarish jarayonida ham ta'lim olish xukukiga xaqlidirlar.

Umrining oxirigacha ham inson vokelikni tinmay urganib boradi. Ta'lim turlari maktabgacha ta'lim, umumiy va urta ta'lim, urta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim, malaka oshirish, maktabdan tashkari ta'lim, oiladagi ta'lim tizimi bilan izoxlanadi. Bu ta'lim tizimi yoshlarga bilim, ko'nikma va malaka berish bilan kifoyalanmay, balki ularning komil inson kilib yetishtirish kabi buyuk vazifalarni bajaradi. O'quvchilar bilimi hayot tajribalari bilan boglangan bo'lishi lozim. Fan asoslarini hayot bilan, mustaqil rivojlanish amaliyoti bilan mustaxkam boglab urganish, uni ishlab chikish mexnati bilan kushib olib borish talab etiladi. Shundagina o'quvchilar bilimlarini oshishi va boyishi uchun, o'quvchi shaxsning tarkib topishi uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. O'quv amallari va urgatuvchi amallar o'quvchini nazariy olgan bilimlarini amalga tatbik qilishda, bevosita ishlab chikarish (zavod, fabrika, kurilish va xokazo) bilan bog'liq bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi va bolani kelgusi hayotga, faoliyatga, kasbga tayyorlaydi.

4. Ta'lim jarayonini muvaffakiyatli tashkil etish unga ta'sir etuvchi omillarga ham bog'liqdir. Bu omillar ichki va tashki omillardir.

Ichki omillarga –diqqat va ustanovkalar kiradi. Ya'ni ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar diqqatini tashkil qilishi, ularni turli xolatlarida turlicha diqqat xususiyatlaridan foydalana olish, diqqatning barkarorlik va ixtiyoriylik xususiyatini shakllantirishdagi usullardan foydalanib o'quvchi diqqatini rivojlantirib borishdir. Shuningdek, o'quvchilarning ham uziga jalb qilish, uzlashtirishga kiynaladigan, diqqati tarkok o'quvchilar bilan uzaro munosabatlar urnatish ta'lim muvaffakiyatini belgilaydi.

Bola xar kandy ta'lim jarayonida ham, u bolani qiziqtiradimi, zeriktiradimi undan kat'iy nazar, dastur mazmunini egallashga tayyor turishlari ko'p jixatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liqdir.

Shuningdek, ichki omillarga o'quvchining dangasaligi, ishyokmasligi, uz irodasini tashkil kila olmasligi, layokatining pastligi ham kiradi.

Tashki omillarga o'quv materiallarining mazmuni va shakllini maksadga yunaltirish darajasi, o'quvchining bir sinfda ikki yil qolishi, bir maktabdan ikkinchisiga kuchib o'tishi, o'qituvchilarning uzgarib turishi va ularni o'quv jarayoniga munosabati, o'quvchini kasal bo'lib qolishi kabilar kiradi. Bo'lar o'quvchilarni bilimlarni uzlashtirishi va uni o'qib olishga ta'sir kiladi va xatto uzlashtirish jarayonini pasayishga sabab bo'ladi.

Ta'lim mazmunini tula va chukur uzlashtirishda takrorlash muxim ahamiyatga ega. Buning uchun takrorlash anik bir maksadga karatilgan bo'lishi, u ongli ya'ni anglangan bo'lishi, takrorlash materialni esdan chikarmasdan oldin bo'lishi, takrorlashda assotsiatsiya konunlariga rioya kilib, materialni bir-biriga boglab takrorlanishi, kiyin materiallarni eng muxim xususiyatlarini ajratib, uni yon daftarga yozib yoki tagini chizib takrorlash muximdir. Eng asosiy takrorlangan materialni ongda kayta jamlab chikishdir. Bunda o'qib o'rganilgan material yotish oldidan yoki boshka mashgulotlar bilan shugullanish jarayonida uni ichida takrorlab chikilsa uzlashtirilgan va uzlashtirilmagan material

anik bilib qoladi va o'quvchi uzlashtirmagan materialni kitobni ochib o'qib olsa u material uning bilim boyligiga aylanadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qituvchi bergan yangi bilim va informatsiyalarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganliklarini bilishda ta'limdagi kaytarma aloqa muximdir. Qaytarma aloqa jarayoni hamma jarayonlardan ham ayniqsa yangi mavzularni mustaxkamlash yoki o'tilgan mavzuni takrorlash jarayonida bo'ladi. O'qituvchi sinf o'quvchilarini o'zlashtirgan yangi mavzu mazmunini aniqlashda mavzu bo'yicha ko'plab mayda savollar berish va kartochkalar tarqatish orqali amalga oshirish mumkin. Qaytarma aloqa orqali mavzuni mazmunini qanday o'zlashtirib olganini aniqlash va u kelgusi mavzuni muvaffakiyatli o'zlashtirish garovi bo'ladi.

Bilimlarni uzlashtirib borish turli kunikma va malakalar xosil qilishga ta'sir kursatadi. Xar kaday kunikma bilimlarsiz bo'lmaydi. Xar bir o'qituvchi kunikma va malakalar xosil qilishni konuniyatlarini bilmogi lozim Ko'nikma va malakalarni ikkinchi turiga umumiy mexnatga doir bo'lib, ular kasb-xunar ta'limi jarayonida takomillashadi. Shuningdek, bu kunikma va malakalar sinfdan tashqari mashg'ulotlarda fanlar bo'yicha tugaraklarda, qo'l mexnati darslarida: kog'ozdan, kartondan, gazlamalardan, plastilindan, turli narsalardan tayyorlash yo'li bilan xosil qilinadi..

Ko'nikma, malakalar quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi.

1. Malakalar xosil qilishdagi notekisliklar (ya'ni: bunda ijobiy yutuklar bilan birga xato, noto'g'ri xarakatlar ham qilinadi.) Hamma o'quvchilarda ham malakalar bir xil shakllanavermaydi.
2. Malakalar kuchishi va tormozlanishi mumkin. Bunda(belgilari mustaxkamlangan malakalar yangi malakalarni xosil qilishga ijobiy ta'sir kiladi) va yangi malakalarni o'zlashtirishi tezlashadi.
3. Malakalar yuksalishi va pasayishi mumkin.

Bunda mashq katta rol uynaydi. Ta'lim jarayonida bilim va tushunchalar shakllanib borishi muxim masalalardan biridir.

Xar bir fanlar bo'yicha beriladigan bilim va tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni bevosita o'quvchilarni psixik jarayonlarni rivojlanib borishiga ularda qobiliyat va qiziqishlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish bilan birga ularni aqliy va axloqiy jihatdan shakllanishiga yordam beradi. Chunki umumiy ma'lumotlar maktablarda fan asoslari, ya'ni o'zaro mantiqiy bog'langan, o'quvchilarni yoshiga mos va tabiat jamiyat hamda tafakkurning muxim tarakkiyot konunlarini tugri tushunishga yordam beruvchi fanning asosiy tomonlari o'rganiladi. Shuning uchun ham o'quv fanlarining tuzilishi dasturlar maktabning ta'lim-tarbiya vazifalariga, o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan bo'lishi lozim. Shundagina yosh avlodni xar tomonlama kamol topgan shaxs qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlangich sinfdanoq tabiat va jamiyat hayotidagi xodisalar qonuniyalarni ochib berish va ularni o'quvchi ongiga singdirish jarayonida o'quvchilarni chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollantirib borish, maqsadga muvofiqdir. Ilmiy tushunchalarni egallash, muayyan faktlarni turmushdagi narsalar orasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izoxlay bilish, mustaqil ravishda umulashtira olish va xulosalar

chiqara bilish demakdir. Shuning uchun o'qituvchi o'z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo'lishni talab qiladi. Ta'limning ilmiy bo'lishi to'g'risidagi talab o'qituvchining o'quv materiali mazmunigagina emas, balki uning shu materialni yoritib berish xarakteriga va o'quvchilarning bu bilimlarni o'zlashtirib olishlariga ham bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchilarni o'ylashga, fikr yuritishga o'rgatishi zarur.

O'rganilayotgan voqealar va narsalarni ular haqidagi ogzaki axborotlarni idrok etish jarayoni, tasavvurlar, obrazlar tushunchalarni tarkib toptirish jarayoni belgilarni takkoshlash, chog'g'ishtirish, qismlarga ajratish, umumiy jihatlarni topish, analiz va sintezni o'z ichiga oluvchi aktiv tafakkur shuni talab qiladi. Bilimlarni uzlashtirish, tushunchalar xosil qilish jarayoni bu bilan tugallanmaydi. O'quvchilar bilimlarni tugri uzlashtirganliklarini, ular olgan bilimlarni yangi voqealarni bilib olishga kanday tadbik eta olishlarini, yangi fakt va misollarni tushuntirishga, yangi ob'ektlarining ma'lum xossalarni topishga, amaliy vazifalarni xal etishga kanchalik tadbik eta olishlarini aniklash yuli bilan tekshirish talab qilinadi. Natijada o'quvchilar uzlashtirgan bilim va tushunchalarning xakikiy ekanini tasdiklaydilar va ular ongida tarkib topayotgan tasavvurlar, tushunchalar vokelikni kanchalik tugri aks ettirishni aniklash imkonini beradi.

O'quvchilarning fikr yuritish faoliyati maxsus aqliy jarayonlar asosida amalga oshadi. Ya'ni materialni muxim va muxim bo'lmagan xususiyatlarni aniklash, ular urtasidagi tafovutlari belgilash orkali bola mustaqil fikr yuritadi. Pedagogik psixologiyada o'quvchilarning aqliy faoliyatida konkret dan abstrakga - buyumlar va xodisalarning uzini kurishdan ular xakida tushunchalar tarkib toptirishga hamda ta'riflar, konunlarni uzlashtirishga, buyumlar tushunchalarning umumlashtirilgan umumiy xususiyatlari va sifatlari xakida mavxum fikr yuritishga utish jarayoni katta urin egallaydi. Ta'lim jarayonida ijodiy tafakkur shakllanib boradi. Ijodiy tafakkur maksadni amalga oshirish yulida tugiladigan savollar asosida («bu nima uchun shunday qilingan», «bunday kilsa bo'lmaydimi?» va x.k) paydo bo'ladi va savollarga javob beruvchi ish-xarakatlarni tasavvur qilish va uylashda rivojlanadi. Ijodiy tafakkur amaliy tafakkur (tevarak-atrofdagi vokelikni uzlashtirish yuli bilan uzimizga keraqli real narsalarni va xodisalarni olishga yoki yaratishga karatilgan tafakkur) asosida paydo bo'ladi. Amaliy tafakkur uziga xos xususiyatga ega. Ya'ni amaliy muxokamalarda o'quvchini ob'ektlarga, muayyan maksadlarga ta'sir utkazish yuli bilan shu ob'ektlarga uzgartirish mumkinligiga kat'iy kilib aytiladi yoki rad qilinadi. Natijada «buni bunday qilish mumkin yoki kilib bo'lmaydi», «bu mana shunday qilinadi» deb uni uz muxokamalarida aks ettiradi. Maktablarda ko'pincha fanlarni urganish vva uni sanoatda, kishlok xujaligida tadbik qilish o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'sishiga yordam beradi. O'quvchilarda texnika ixtirochilik, sanoat, kishlok xujaligi masalalariga bo'lgan qiziqishlar, modellar, konstruksiyalar yasash, elektrotexnika bilan shugullanish, dala ishlarida katnashish kabilar ijodiy tafakkurni shakllanishi va rivojlanib borishida eng asosiy usullardadir.

Xozirgi kunda o'quvchilarning bilish faoliyatini faol, mustaqil, ijodiy tafakkurini avj oldirish maktab ta'limining eng muxim vazifalaridan biriga aylanib bormokda. Demak, ta'limning asosi -o'qituvchining o'quvchilarga yetkazadigan mul-kul axborotini esda olib qolish emas, balki bu axborotni olish jarayonida o'quvchilarning o'zlari aktiv ishtirok etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish qobiliyatini, ma'lumotni oshirish qobiliyatini asta-sekin shakllantirib borishdan iborat bo'lmog'i lozim.



### 2.3. o'quv va mehnat faoliyatini psixologik tadqiq etish usullari

Ko'p yillik kuzatishlar va pedagogik tajribalar, ilmiy adabiyotlar taxlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchining aqliy rivojlanish darajasini pastligi yoki ularda ma'lum o'quv malakalarning rivojlanmaganligi, past o'zlashtirishga, o'quvchining kasbga, ilmga qiziqishining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun, o'quvchining intellektual rivojlanish darajasini, ularda mavjud o'quv malakalarini o'rganish, kamchiliklarni tuzatish, maxsus o'quv va mehnat malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Xozirgi vaqtda psixologlar, pedagoglar va amaliy psixologlar oldida ikkita o'zaro uzviy muammo: ta'lim olishga bo'lgan qobiliyat va o'zlashtirishning pastligi sababi xamda qobiliyat va o'zlashtirishning bog'liqligini o'rganish dolzarb bo'lib turibdi. Agar o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini aloxida o'quv fanlari bo'yicha o'quv materialini asosida tuzilgan metodika yordamida aniqlansa, uning faqat shu o'quv predmeti (iqtisodiyot, psixologiya, pedagogika, buxgalteriya xisobi...) bo'yicha ta'lim olishga bo'lgan qobiliyati aniqlanadi. Masalan, vazifalarning barchasi iqtisodiyot fanidan tuzilsa, o'quvchining iqtisodiyot fanidan qanday bilimga egaligini, extimol unda qanchalik shu fanni o'zlashtirishga imkoniyat va bilim borligini ko'rish mumkin. Bunday metodikalarning qo'llanilish soxalari, chegaralari va qo'llanilish muddatlari cheklangan. Diagnostikaning asosiy vazifasi faqatgina bir fandan emas, balki bir qancha fanlardan o'zlashtirishini, yomon o'zlashtirish sabablarini (agar shunday xol ro'y bersa) topishdangina iborat emas. Psixodiagnost uchun o'quvchining xaqqoniy o'quv imkoniyatlarining barcha qirralarini iloji boricha to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi, xar qanday sharoitda, qaysi predmetdan qanday mavzu o'tilganidan qat'iy nazar qo'llash mumkin bo'lgan metodikalar zarur.

Ma'lumki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baxolashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida xisobga olinishi lozim bo'lgan muxim omil go'yoki chetda qolib ketadi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat xamda bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muxim va asosiy qismlarini ajrata olishi, olgan bilim yoki xosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, texnik vazifalarni echa olishi (texnik tafakkur) kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi. Shu sababli amaliy psixologlar o'quvchining o'rganayotgan kasbi, qaysi o'quv predmetining muximligidan kelib chiqqan xolda uni baxolashlari osonroq bo'ladi. Masalan, texnik tafakkurini baxolashda, uning tafakkurini obrazli komponentlari, predmet va vazifalarni fazoda idrok qila olishi, turli chizma, grafiklarni, chizmalarni tasavvurda tiklashi va real xayotda qanday ko'rinishga, qinday ishlashini tushunishi ko'p axamiyatga egaligiga e'tibor berish kerak. Texnik tafakkurning asosiy komponentlari tushunchalar, obrazlar, obrazli-xarakatli va abstrakt (mavxum) tafakkurdir. Boshqacha

qilib aytganda, psixodiagnost o'quvchining o'quv malakalarini o'rganishda fanning xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim.

Mehnat – bu insoniy tirikchilikning eng birinchi va asosiy shartidir. Jamiyatda mehnat shaxsni shakllantirish vositasi, ijodiy ilhom va turli-tuman emotsional kechinmalarning manban bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham psixologiya fanining tarmoqlari ichida mehnat psixologiyasi masalalari juda katta o'rin olmog'i kerak.

Mehnat psixologiyasi masalalari XIX asr o'rtalaridan boshlab kapitalistik tuzum sharoitlarida ekspluatatorlar manfaati uchun ishlab chiqila boshladi. Keyinchalik mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning ahvoli tubdan o'zgarganligi uchun ham, mehnat psixologiyasi masalalari boshqacha xarakter va yo'nalishga ega bo'ladi: psixologiyaning bu sohasidagi masalalarni ishlab chiqish kishilar manfaatiga xizmat qilmog'ini nazarda tutildi. Jismoniy va aqliy mehnat o'rtasidagi farqlarni tugatish munosabati bilan mehnatkashlar psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganish psixologiyaning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Mehnat psixologiyasi sohasidagi ishlarning yutug'i va samarasi, albatta, ko'p jihatidan kishilarning har xil mehnat faoliyati sohalarida ro'y bergan psixik hayot hodisalarini o'rganishning mukammal metodlarini ishlab chiqishga bog'liqdir.

Mehnat sohasidagi psixologik tekshirishlar insonni mehnat sharoitlarida o'rganuvchi boshqa fanlar: mehnat fiziologiyasi, mehnat gigienasi, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi metodikasi, shifokor mehnat ekspertizasi, ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnik me'yorlashtirish, texnika havfsizligi kabi fanlar bilan uzviy bog'lanishda amalga oshirilmog'i kerak.

### **O'quvchining o'quv va mehnat ko'nikmalarining diagnostikasi**

O'quvchining o'quv va mehnat ko'nikmalari o'z ichiga uning o'z ishini rejalashtira olishi, o'z faoliyatini o'zi nazorat qila olishi, faoliyat sur'atini boshqara olishini oladi.

O'quvchining aqliy rivojlanishi darajasini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tafakkur jarayonlarning rivojlanganlik darajasi;
- tafakkurning texnik faoliyatda yuzaga chiqadigan maxsus xususiyatlari;
- o'z faoliyatini rejalashtirishi va boshqara olishi;
- texnik vazifalarni echishda muxim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi, mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish uchun, qo'llash mumkin bo'lgan oddiy metodikalarga quyidagilar kiradi:

1. ortiqcha predmetni olib tashlash;
2. ortiqcha tushuncha topish;
3. tushunchalarni taqqoslash;
4. murakkab analogiya;
5. oddiy analogiya;

6. o'quvchining o'quv materialidagi muxim va asosiy belgilarni ajrata olishi;
7. o'quvchining o'quv malakalarini o'rganish.

Mehnat faoliyatining har bir aniq turi ma'lum darajada normativ tasdiqlangan bo'ladi. Bunda albatta samaraliroq va ixchamroq variant muhim mezon etib olinadi. Inson kasbni o'zlashtirish jarayonida bu yozilgan normalarni individuallashtiradi, ya'ni o'ziga, uning xos bo'lgan shaxsiy fazilatlar va psixologik xususiyatlarni namoyon etadi. 60-rasmda faoliyatning psixologik tizimi, undagi funksional tarkib berilgan.

Bu rasmdagi har bir tarkib o'z mazmun va mohiyatiga ega.

- 1) faoliyat motivlari, uni harakatlantiruvchi kuchlari (moddiy, bilish, estetik va boshqalar);
- 2) faoliyat maqsadlari, uning mazmunini shakllantiradi va aniq kutiladigan natijalarda ifodalanadi;
- 3) faoliyat dasturi, mazmunning aniq tasavvurini va jarayonni aks ettiradi;
- 4) faoliyatning axborotga asoslanganligi, ma'lumotlar bazasi, kasbiy bilimlarga oid predmetli va subyektiv sharoitlar, ularni amalga oshirishga oid ma'lumotlar;
- 5) qarorlarni qabul qilish jarayoni, muammoli vaziyatni ko'rish, farazni, ilgari surish (muammoni yechimi usullarini), bajarish tamoyilini aniqlash, hal etish variantlarini, baholashni amalga oshirish;
- 6) psixomotor jarayonlar;
- 7) muhim professional sifatlar, mehnat egasining psixologik xususiyatlari, aniq mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan individual-psixologik sifatlar, fazilatlar.

Shaxsni mehnat faoliyatida psixik xolati, jarayonlari, mehnatdagi yutuqlarini aniqlash maqsadida turli metodlar qo'llaniladi. Bunda qaysi mezonlarga ko'ra shaxs muvaffaqiyatlarga erishishi amalga oshganligi masalasi muhim bo'ladi. Shuning uchun ushbu toifadagi metodikalar qo'llanishi kuzatiladi:

- 1) aniq faoliyatning o'ziga xos tomonlari bilan tanishish uchun ish hujjatlarini tahlil etish;
- 2) faoliyat mazmuniga oid ma'lumotni vizual to'plash uchun ish jarayonini kuzatish;
- 3) xronometraj, mehnat jarayonining ayrim ko'rsatkichlarini baholash;
- 4) mehnat kishisidan yozma yoki og'zaki ravishda ma'lumot olish uchun so'rov (anketa, suhbat, ekspert baholash) metodi;
- 5) mehnat vazifalarini bajarishga oid shaxsiy tasavvur, fikr, kechinmalarni o'zida kuzatish va o'zida hisoboti;
- 6) mehnat faoliyatiga qo'yilgan eksperimentatordan faoliyatga oid ma'lumotlarni olish uchun mehnat metodi;
- 7) shaxsning hayotiy va faoliyatga oid ma'lumotlarini tahlili uchun biografik metod;
- 8) faoliyat sharoitlarini o'rganish uchun fiziologo-gigiyenik metodlar;
- 9) mehnat subyektining psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun tajriba(tabiiy va laboratoriya)metodi.

Mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini tahlili olingan sifat va miqdor ko'rsatkichlarining har

tomonlama o'rganish hamda sistemalashtirishga asoslanadi. Professiografiya deb, mehnat subyekting faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metodga aytiladi. Faoliyatni o'rganish natijasida professiogramma, ya'ni kasbning turli obyektiv xarakteristikalarining tasnifi va psixogramma, ya'ni faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi tuziladi.

Professiogramma ushbu tamoyillarga ko'ra tuziladi:

- 1) ma'lum faoliyatning aniq, o'ziga xos tasnifi;
- 2) kompleks o'rganilganlik;
- 3) o'rganish dinamikasi (rivojlanish sharti bilan, faoliyat o'zgarishi);
- 4) sistemalilik (faoliyatning alohida xarakteristikalarini o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri);
- 5) qabulning o'xshashligi (kasblarni aniq taqqoslash uchun);
- 6) miqdoriy va sifatiy metodlarni qo'llash.

Professiogramma ushbu xarakteristikalardan tashkil topadi:

- 1)kasbga oid umumiy ma'lumotlar (tarkib, tayinlash, xodimlarning majburiyatlari, mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari);
- 2)faoliyat mazmuni (asosiy vazifalar tahlili, ma'lumotlar oqiminin o'ziga xosligi, xatolar tahlili);
- 3)faoliyat vositalari (ma'lumotlarni ko'rsatish. Ularni joylashtirish, obzor);
- 4)mehnat sharoitlari (sanitar-gigiyenik, ijtimoiy-psixologik, estetik);
- 5)faoliyatni tashkillashtirish (ish yuklamasining ko'rinishi va xajmi, ish va dam olish rejimi);
- 6)faoliyat subyekti (funksional xolatlar, kommunikativ sifatlar, vazifalarga taalluqlilik).

Faoliyat psixogrammasi mehnat egasining kognitiv, emosional-irodaviy, motivasion, individual-psixologik va boshqa kasbiy muhim bo'lgan sifatarga qo'yiladigan talablar hamda xarakteristikalaridan iborat bo'lishi kerak.

Shaxs mehnat faoliyatini tushuntirishda beshta tushuncha muhim hisoblanadi.

Mehnat faoliyati bir tomondan odamning ehtiyojlari, ichki motivasiyasi mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, aynan u shu mehnatni amalga oshiruvchi, hamda uning mahsullarini o'zlashtiruvchi ham aynan uning o'zidir. Shuning uchun ham shaxsning ushbu tizimdagi asl mohiyatini bilishi, uning faolligini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yarata olish va mehnati mahsulini bashorat qilish faoliyat samarasining bosh omili hisoblanadi. Odamning mehnatga munosabati masalasi, mehnatining shaxs uchun muhim qadriyatga aylanishi, mehnat motivasiyasi masalasi psixologiya uchun dolzarb va ahamiyatlidir. Bu masala yana shuning uchun ham dolzarbki, O'zbekiston mustaqil bo'lib, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi sharoitida odamni ijtimoiy qadriyat hisoblanmish mehnatga ongli munosabati va qadriyatlar iyerarxiyasida ijtimoiy faollik va mehnatning o'rnini aniq bilish asosiy hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan omillar mehnatning subyekti bo'lmish shaxsni ishga undovchi va mehnat operasialarini muvaffaqiyatli bajarishga psixologik jihatdan hozirlovchi psixologik shart-sharoitlardir. Ular kompleks tarzda odamni mehnat faoliyatiga safarbar qiladi va mehnatga munosabati xarakterini belgilaydi.

Ma'lumki, tevarak-atrofimizni qamrab olgan olamdagi iqtisodiy obyektlar, jarayonlar, munosabatlarning rivojlanishi va o'zgarib borishi iqtisodiyot va psixologiya fanlari o'rtasidagi bog'lanishni tobora oydinlashib borishiga xizmat qilmoqda. Bunday bog'lanishlarni, ularning ilmiy tadqiqotlari ko'lamining kengayib borayotganligidan ham kuzatish mumkin.

Bir tomondan, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy va psixologik fanlarning nafaqat yaqinlashuvi, balki qo'shilishi, bir-birining mohiyatiga kirib borishi sodir bo'lmoqda.

Ikkinchi tomondan – individual, guruhli va jamoaviy psixologiyaning xo'jalik jarayonlariga, iqtisodiy amaliyotga hamda sohadagi boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga ta'siri keskin kuchayishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning shakllanish darajasiga e'tibor berib qarasa, psixologiya borgan sari ko'proq iqtisodiyotga kirib borayotganligi, to'ldirayotganligi, yo'naltirayotganligi hamda uning katta-kichik ko'lamdagi voqeyeliklarining tub negiziga aylanib borayotganligi sezilmoqda. Afsuski, bu holat iqtisodchilarning ham, psixologlarning ham ilmiy tadqiqotlari predmeti sifatida izlanishlar ko'lamini kam miqyosda qamrab olmoqda. Insonning iste'molchi va iqtisodiy foyda izlovchilar sifatidagi xulqida kuzatiladigan psixologik xususiyatlar Adam Smit va Alfred Marshallardan boshlab to Jon Keynsgacha bo'lgan "iqtisodiy nazariya"ning klassik namoyondalari asarlarida aks etgan bo'lsa-da, iqtisodiyot fani hozirgacha psixologiya bilan yonma-yon turib, uning ichiga kirishmagan. Psixologiya fani esa, o'zining ong va psixika xususidagi ilmiy asoslangan qarashlarini saqlagan holda, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste'mol qilish, shuningdek, boshqaruvni tashkil etish jarayonidagi iqtisodiy xulqni o'rganishga hamda ilmiy jihatdan tadqiq qilishga endigina kirishdi.

Iqtisodiyot va psixologiya fanlarining o'zaro mutanosiblashuvi hamda umumiy tadqiqot predmetlarining aniqlanishuvi natijasida "Iqtisodiy psixologiya" deb nomlangan yangi soha yaratilib, hozirda o'zining qaror topish va shakllanishini bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Iqtisod va psixologiyani ilmiy nuqtai nazardan qiziqtiradigan obyektiv predmeti bir-biriga yaqin: ikkisi ham subyekt xulqini kuzatadi. Bunda iqtisodchilarni subyektning bozorga bo'lgan munosabatlari qiziqtirsa, psixologlarni esa, uning faoliyatga bo'lgan individual reaksiyasi va hissiy kechinmalari qiziqtiradi. Har ikkisi ham bilim manbaiga suyangan holda ish ko'radi.

### 3.BOB. Kichik maktab yoshi davrida o'quv va mehnat faoliyatini eksperimental taxlil qilish

#### 3.1 Boshlang'ich tajriba usullari va natijalarni qayta ishlash

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining o'quv va mehnat faoliyatini o'rganishda psixologiya va pedagogikada turli eksperimentlar ishlab chiqilgan. Bu metodikalar yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun tajriba natijalariga tayangan xolda koreksion ishlar tashkil etiladi. Natijada o'quvchilarning ta'lim va mehnat faoliyatiga o'rgatish va ularda ko'nikmalar xosil qilishdagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. Quyida biz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan psixodiagnostik metodikalar va ularning psixologik tavsifi haqida fikr yuritamiz. Biz kichik maktab yoshida o'quvchilarni shaxsiy xususiyatlarini shakllanishi va ularning mehnat, o'quv faoliyatiga adaptatsiya jarayonini ularning qiziqishi va motivlarini kaidagi metodikalar orqali o'rganib chiqdik.


Tadqiqot metodikasini Andijon shaxri shaxri №8 bolalar maktabida o'tkazdik. Tadqiqotimizda 30 ta respondentlar ishtirok etdi. Ular 7 yoshdan 10 yoshgacha o'quvchilarni tashkil etadi.

1. O'quvchilarning dastlab narsa va xodislarning anglashi ularning figuralarni farqlashi va ranglarni ajrata olishidagi bilimlarini tekshirish uchun psixogeometrik metodiklardan foydalanildi.

#### Tajribaning borishi

Ishtirokchilar: 1 sinfdan 5 o'quvchilar.

**1 topshiriq .Ko'rsatma.** Berilgan rasmlardan o'zingizga yoqqanini tanlang. Va xar birini ranggini ayting.



Ikkinchi bir eksperiment orqali bolalarning xotirasi va ularning nutqi, fikrlash qobiliyati tekshiriladi.

2-topshirik.Ko‘rsatma.

Berilgan rasmlarga qarab ertak aytib bering: ( ayik, olmaxon, tulki, turna, bo‘ri, quyonlarning rasmi)Bu metodika L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u bolalarning akliy taraqqiyotini o‘rganishda qo‘llaniladi. .Bu metodika orqali bolalarning fikr yuritishi, nutqini o‘rganish va rivojlantirish mumkin. Shuningdek bolalarning ijodiy tafakkuri xam rivojlanadi.

**Topshiriklarni bajarish xolati.**

**1-jadval.**

<b>Tekshirluvchilar</b>	<b>1 topshiriq Rasmlarni ajratish</b>	<b>2-topshiriq xikoya tuzish</b>	<b>3-topshirik Kubiklarni joylash.</b>
<b>1 gurux (2 sinf)</b>	<b>25%</b>	<b>35%</b>	<b>50%</b>
<b>2 gurux (3-sinf)</b>	<b>45%</b>	<b>48%</b>	<b>60%</b>

**2- jadval.**

<b>Tekshirluvchilar</b>		<b>1 topshiriq</b>	<b>2 topshiriq</b>	<b>3topshirik</b>
<b>Nazorat guruxi.</b>	<b>1 gurux (2-sinf)</b>	<b>30%</b>	<b>35</b>	<b>40%</b>
	<b>2 gurux (3 sinf)</b>	<b>25%</b>	<b>35%</b>	<b>50%</b>
<b>Eksperiment guruxi.</b>	<b>1 gurux (2-sinf)</b>	<b>33%</b>	<b>55%</b>	<b>50</b>
	<b>2 gurux (3 sinf)</b>	<b>35%</b>	<b>55%</b>	<b>50%</b>

Olingan natijalarni qayta ishlash va taxlil qilish asosida quyilagicha xulosalar olindi.

1-Nazorat guruxi tekshiriluvchilarining o‘quv faoliyatiga adaptatsiyani shakllantirishda ko‘rgazmali va rolli o‘yinlar vositalarning roli katta bo‘ldi. Ularning rasmlarga karab turli fikrlarni aytishi, tartibsiz bo‘lsada o‘zlari eshitgan, ertaklari, va ko‘rgan mulfilmlari asosida ertaklar tuzishga xarakta qildilar.

Eksperiment guruxda esa biroz xayajonlanish va tortinish jarayonlari kuzatildi.Chunki bu gurux bolalarida eksperimentatorning ta’siri kuchli bo‘lganligi kuzatildi.Bolalarning erkin xarakt kilishlarida to‘xtalishlar sezildi.Lekin ularning yoshlaridagi farqlarga ko‘ra bilish jarayonlarining sezilarli darajada namyon bo‘lishi kuzatildi.

Xulosa kilib aytganda maktabgacha yosh davri bolalarining ta’limga moslashtirishda ijtimoiy psixologik ta’sirlar ( ko‘rgazmali vositalar bilan ishlash, tarbiyachining mumolasi, ota-onaning ta’siri)ning mazmun moxiyatiga ko‘ra rolini oshirish va o‘quv mashg’ulotlarini to’g’ri tashkil etish bolalarda ta’limga moslashishning engil bo’dishini ta’minlaydi.

Metodika 2.



2. «Bu yerda nima ortiq». Bu metodika obrazli mantiqiy tafakkur bilan bola nutqini va mso‘z boyligi, aqliy taxlil qila bilish, umumlashtirishni xam aniqlaydi. 3 daqiqa ichida berilgan 4 ta buyumdan bitta ortiqchasini aniqlash topshiriladi. Natijani baxolash

10 bal-1 daqiqada xammasini aytib izoxlab bersa  
8-9 bal-1-1,5 daqiqada xammasini aytib izoxlab bersa  
6-7 bal-1,5-2 daqiqada xammasini aytib izoxlab bersa  
4-5 bal-2-2,5 daqiqada xammasini aytib izoxlab bersa  
2-3 bal-2,5-3 daqiqada xammasini aytib izoxlab bersa  
0-1 bal-3 daqiqada topshiriqni bajara olmasa.

Rivojlanish darajasi.

10 bal-juda yuqori


8-9 bal- yuqori

4-7 bal-o‘rta

2-3 bal-past

0-1 juda past





3. «Kimga nima yetishmaydi».

Bu metodikani o‘tqazishda bolaga rasmni ko‘rsatmay nima qilish kerakligini tushuntiriladi va rasm ko‘rsatiladi.

Natija esa quyidagicha baxolanadi:

10 bal-30 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa



8-9 bal-31-49 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

6-7 bal-50-69 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

4-5 bal-70-89 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

2-3 bal-90-109 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

0-1 bal-110 va ko‘p soniya vaqt sarflab aytib bersa



Nutqning rivojlanishi, bola soʻz boyligini aniqlash metodikas.

### 1. «Konturni chiz».

Bu metodikada bolaga qalam berib rasmdagi konturni (namuna) chizilmagan rasmni chizish topshiriladi (rasm).

Natijani baxolash

10 bal-90 soniyada topshiriqni toʻgʻri aniq bajarsa (burchak va toʻgʻri chiziq aniq)

8-9 bal-90-105 soniyada ayrimlarida xatolik bor (1-2ta)

6-7 bal-105-120 soniyada ayrimlarida xatolik bor (3-4ta)

4-5 bal-120-1135 soniyada ayrimlarida xatolik bor(7-8ta)

2-3 bal-135-150 soniyada ayrimlarida xatolik bor (11-20ta)

0-1 bal-150 soniyadan koʻp xatolik koʻp boʻlsa (1-2ta toʻgʻri)

« Bu rasmlarda nima yetishmaydi? »

Metodika № 2

Met  
odik  
a №  
3

Ismi va familiyasi	Sinf	Vaqt	Ball	Daraja
Murodova. G	2	60 sek	1	Juda past
Azizova.A	2	68 sek	1	Juda past
Kimsanova Z	2	78 sek	1	Juda past
Malikova.N	2	35 sek	5	O'rta
Murodova.Z	2	38 sek	4	O'rta
Abdullaeva x	2	80 sek	1	Juda past
Akbarov M.	2	35 sek	5	O'rta
Sirojiddinov.J	2	35 sek	5	O'rta
To'xtaboev.K	2	55 sek	1	Juda past
Umarova.M	2	35 sek	5	O'rta
Umarov.O	2	35 sek	5	O'rta
Toshtemirova.D	2	57 sek	1	Juda past
Yuldashova N	2	54 sek	1	Juda past
Xusanova F.	2	100 sek	0	Juda past
Bobomurodova S	2	58 sek	1	Juda past

Ismi va familiyasi	Sinf	Vaqti	Ball	Daraja
Yusupova.A	3	10 sek	10	Eng yuqori
Akbarova S	3	35 sek	3	Past
Sodiqova Yu	3	30 sek	4	O'рта
Saloxiddinova B	3	45 sek	2	Past
Bozorova.M	3	10 sek	10	Eng yuqori
Sultonova Sh	3	30 sek	4	O'рта
Xurmatova X	3	25 sek	5	O'рта
Adilova Yo	3	45 sek	2	Past
Iminov.B	3	47 sek	2	Past
Xurboev.U.	3	40 sek	3	Past
Bakirov S	3	50 sek	1	Juda past
Yuldashova M	3	35 sek	3	Past
Abdukarimova G	3	35 sek	3	Past
Tojiboev T	3	5 sek	10	Eng yuqori
	3	33 sek	3	Past


**Metodika № 2**

Eng yuqori	0	0
Yuqori	0	0
O'рта	6	39.9
Past	0	0
Juda past	9	59.9
Jami		98.8
Eng yuqori	3	19.9
Yuqori	0	0
O'рта	3	19.9
Past	8	53.3
Juda past	1	6.6
Jami		99.7

**Met  
odi  
ka  
№  
3**



Quyidagi diagrammada Andijon shaxar shaxar №8-son umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan olib borilgan tajriba natijalarining tahlili keltirilgan.





Kichik maktab yoshi davrida bolalarni ta'lim faoliyatiga moslashtirish dastlab ularda xissiy xissiy zo'riqishlarni yuzaga keltirsa, sekin astalik bilan mashg'ulotlarning uyin bilan birga bog'lantashkil etilishi ularda adaptatsiya jarayonini shakllantiradi.

Mexnatga munosabatni o'rganish va ularning qiziqshlarini aniqlash uchun qo'yidagi rasmlar orqali suxbat uyushtirildi.



### Bob yuzasidan xulosa

Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshi davrida shaxs shakllanishi o'ziga xos xarakterni tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchilarni mehnatga o'rgatish ularda moslashishni shakllantirish uchun ijtimoiy muxit ta'siri va pedagoglar bilan ita –ona xamkorligining o'rni katta bo'ladi.

Bu yoshdagi o'g'il va qiz bolalarda ta'lim faoliyati motivlarini shakllantirish orqali ularni bilish jarayonlarini ham shakllantirish yuqori natida berdi. Agar har bir maktabda ukuvchilarning kizikshlari asosidagi ijodiy darslarni ko'paytirilsa bolaning "men"nini tarbiyalash oson bo'ladi.. Tadqiqot

natijalari ana shuni ko'rsatadiki respondentlarimizning 75%i ukuv faoliyati motivlari orqali bish jarayonlarini rivojlanishi va maktabga moslashishi kuzatilgan. Ularning oilaviy xususiyatlari o'rganib chiqilganda oilada ham oila qadriyatlariga xurmat, bolalarni yoshlikdan mexnatga o'rgatish, o'qishga moslashtirish uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi guvoh bo'ldik. Biz o'tkazgan eksperiment natijalari ilmiy farazlarni deyarli aksariyat qismini tasdiqladi va yana qo'shimcha xulosalar chiqarishga imkon berdi.

1. Bola shaxsi taraqqiyoti jarayonida unda shakllanadigan o'quv va mexnat faoliyatiga adaptatsiyasi maxsus ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarning bevosita maxsuli bo'lib, bunday sharoitlarni sun'iy ravishda ham yaratish mumkin.

2. Dastlabki, tabiiy ijtimoiy psixologik omillarga oila mu'iti hamda bolalar jamiyatida sodir bo'ladigan rolli o'yinlarni kiritish mumkin.

3. Ijtimoiy tasavvurlarning xarakteri bolani o'rab turgan muxitga, ota-onalarning ijtimoiy-gumanitar munosabatlarga qarashlari hamda bu borada ularning bolalar bilan o'zaro munosabatlaridagi jarayonga bog'liq bo'ladi. Chunki bolaning o'zlashtirishi va mexnatga o'rgatish o'zaro xamkorlik natijalariga bog'liq bo'ladi.

4. Bolada mexnatga moslashishning shakllanishini ta'minlovchi psixologik mexanizmlarga avvalo identifikatsiya, taqlid qilish, ta'sirlanish va o'rnak olish kabilar kiradiki, ular ham ana shu ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi in'ikosidir.

5. Maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy psixologik omillar - maqsadli suxbatlar, rolli o'yinlar, ijtimoiy treninglar va boshqalar aynan kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda o'quv motivlarini barqarorlashtirish va ularning ong strukturasiida mustahkamlanishiga zamin bo'ladi.



## UMUMIY XULOSA

Bolalar maktabga borganlarida mehnat uchun hali jismoniy va texnik jihatdan yetarlicha tayorgarlik koʻrmagan boʻladilar. Ular hali oʻz harakatlarini hamisha ham qismlarga ajratib va bir-biriga muvofiqlashtira olmaydilar, ularda koʻz bilan qoʻl yetarlicha bir-biriga muvofiq tarzda ishlay olmaydi, kinestetik (muskul) sezgilari uncha oʻsmagan boʻladi. Ammo 9 yoshga kirganda bolaning uncha murakkab boʻlmagan ishlarga jismoniy tayorgarligi ancha ortadi. Dkmak yuqoridagi fikr va muloxazalardan kelib chiqib, olingan tajribalar natijalarini taxlil kilish asosida quyidagicha xulosalarga keldik.

1.Oʻqish va mexnat faoliyati kichik maktab yoshi bolalarida ijtimoiy taxsirlar natijasidagina toʻla rivojlanadi.

2.Oʻquvchilarda mexnatga nisbatan koʻnikma va malakalarni shakllantirish orkali ularning oʻz loyoqati va kobiliyatini anglab yetish imonini beradi.

3 Xozirgi kunda oʻquvchilarning bilish faoliyatini faol, mustaqil, ijodiy tafakkurini avj oldirish maktab taʼlimining eng muxim vazifalaridan biriga aylanganligi sabali oʻquvchilarni ijtimoiy foydali mexnatga jalb etish va ularni taʼlim faoliyati bilavn uygʻun xolda tashkil etish oʻquvchilarda ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi.

. Demak, taʼlimning asosi -oʻqituvchining oʻquvchilarga yetkazadigan axborotini esda olib qolish emas, balki bu axborotni olish jarayonida oʻquvchilarning oʻzlari aktiv ishtirok etishi yotadi.

## TAKLIF VA TAVSIYALAR

1 Birinchi sinfdagi bolalar o'z xatolaridan ko'ra ko'proq o'rtoqlarining ishdagi kamchiliklarini sezadilar, shuning uchun ularni o'z faoliyatini noto'g'ri bajarilayotganini to'g'ri anglab yetishini o'rgatish zarur.

2. ikkinchi va uchinchi o'quv yilida o'z mehnatlari mahsuliga ham ancha tanqidiy munosabatda bo'ladilar, uning sifatini baholashga ob'ektivroq yondoshishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

3. Qo'lidan keladigan mehnat mashg'ulotlari bolalarda avvalo bu mashg'ulotlar harakatlanish bilan bog'liq bo'lgani uchun quvonch xislarini yuzaga keltiradi. Bu xolatni bola ongiga singdirish va uni rag'batlantirib borish bolalarda o'qish va mehnatga nisbatan munosabtlarni o'zgartiradi. Buning uchun mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalardan ko'proq foydalanish orqali tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. O'quv va mehnat faoliyatini kichik maktab yoshi bolalarida shakllantirish uchun o'qituvchining ijodkorlik faoliyati talab etiladi. Bunda o'qituvchi bolalarni ko'proq o'z bilimlari asosida ish xarakterlarni bajarishga o'rgatish va xatolarini o'qituvchi tomonidan bolaga tushuntirilib borilsa o'quvchilarning keyingi faoliyatida bu xatolarga yo'l qo'yish xolatlarini kamayadi.

5. O'qishning dastlabki yillaridanoq mehnat bolalarda shaxsning ehtiyoji tariqasida yuzaga keladi. Bunda kattalarga taqlid qilish ham foydali bo'lishi istagi ham katta rol o'ynaydi. Bu jihatdan kichik yoshdagi o'quvchining maishiy mehnati, oilada o'zidan kichik bolalarga qarab turishi, sinfni yig'ishtirishda ishtirok etishi, gullar va tirik burchak jonvorlariga qarashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarni bola ongigasingdirish va uni mazmun mohiyatini to'la anglashni ta'minlash zarur.

6. O'qituvchi o'quvchilarni faqat ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilibgina qolmasdan, ota-onalar bolalarda mehnatga mehr-muhabbat hamda odatlanishni qunt bilan tarbiyalab borishlari uchun ularga ta'sir ko'rsatib turishi ham kerak.

7. O'qituvchi bolalarda ijtimoiy foydali mehnatga mehr-muhabbat va ishlay olish qobiliyatini tarbiyalashda ularni qiziqtirishga intiladi. Biroq ayni vaqtda o'quvchilarni ayrim mehnat operatsiyalarini bajarishda uyushqoqlik va izchillikka o'rgatish zarur.

8. Ular o'z ishlarini rejalashtirishga, ishni belgilangan muddatda tugallash uchun vaqtlarini to'g'ri taqsimlashga uncha qodir emaslar. Shunday ham bo'ladiki, bolalar ishda tartibga rioya qilmay, hamma narsani sohib tashlaydilar, natijada mehnat o'ngidan kelmaydi, muvaffaqiyat ko'zga ko'rinmay qoladi. Bunday xollarda o'qituvchi bolalarga o'z mehnatlarini durustroq yo'lga qo'yish, uni o'ylab rejalashtirishda yordamlashish kerak.

9. Agar ish yurishib ketadigan bo'lsa, unda o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonish hissi va uni oxrigacha muvaffaqiyat bilan yetkazish istagi paydo bo'ladi. O'qituvchi bolalarga boshchilik qilar ekan, ularni mustaqillikka o'rgatishi lozim. Tashabbus, ijodiyot, oqilona ravishda o'ylab olingan ishlar rag'batlantirilib borilishi darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T.: 1995. -20 b.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. - T.: O'zbekiston, 1995. - 202-278 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - 328 b.
4. Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi - barchamizning mukaddas insoniy burchimiz. G' Tafakkur jurnali. - 2-son 2000 y.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008. - 58 b.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – T. “O'zbekiston”, 2005.
7. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T. “O'zbekiston”, 2005
8. Andreeva G.M. Aktualnqe problemq sotsialnoy psixologii. - M.: Izd-vo MGU,1998. - 112 s.
9. Anekeeva N.P. Jamodagi ruxiy muxit. - T.: Ukituvchi, 1992. –256 b.
10. Baratov Sh.R. Me'nat tarbiyasi va uning psixologik asoslari. - Buxoro. 1991. - 40 b.
11. Baratov Sh.R. O'z bolangizning psixologiyasini bilasizmi? G'G' Boshlangich ta'lim. 1997, 2-son. - 12 b.
12. Baratov Sh.R. Bolangizni stressdan asrang. G'G' Sixat-salomatlik. 1997, 2-son. - 27 b.
13. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. - M.: Pedagogika, 1991. – S. 236-246
14. Davletshin M. va b. Psixologiya: Izoxli lugat. T., Ukituvchi, 1998.-2356
15. Dadaxonov M. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari.- T.: O'zbekiston, 1980. 31 b.
16. Daminova M., Adambekova T. O'yin mashulotlari. -T.: 1993. -96 b.
17. Yo'ldosheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. - T.: 1992.- 119 b.
18. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - T.: Universitet. 1999. - 94 b.
19. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Ukituvchi, 1994. - 95 b.
20. G'oziev E. Intelekt psixologiyasi. T, «O'qituvchi», 1990.-75b
21. G'oziev E. Psixologiya. T, «O'qituvchi», 1994.125b
22. Muxina V.S. Detskaya psixologiya. Uchebnik dlya studentov ped. in-tov. - SPb.: Prosveshenie, 1992. - 303 s.
23. Myasishev V.N. Struktura lichnosti i otnosheniya cheloveka k deystvitelnosti. Psixologiya lichnosti: tekstq. - MGU: 1982. – S. 35-38.
24. Nemov R.S. Psixologiya. Ucheb. dlya studentov vqssh.ped.ucheb. zavedeniy. V 2 kn. Psixologiya obrazovaniya. - M.: Prosveo'enie, Vlados. 1994. - 496 s.

25. Bolotova A.K, Makarova I.V. Prikladnaya Psixologiya: Uchebnik dlya vuzov.- M.Aspekt Press, 2002 – 383 s.
26. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.:IKS “MarT”, 2004-512 s.
27. Vospitay svoego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizatsii talantlivo’x rukovoditeley. g’ Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom “Vilyams”, 2002.- 416 s.
28. Lojkin .G.V. Povyakel N.I Prakticheskaya psixologiya v sistemax “chelovek texnika”: Ucheb.posobie.- K.: MAUP, 2003 – 296 s.
29. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003.320 s.
30. Spravochnik po resheniyu krossvordov i skanvordov .- Rostov ng’D: Vladis,2002. – 640 s
31. Elkonin D.B. Psixicheskoe razvitie v detskix vozrastax. - Voronej: NPO «MODEK». 1995. - 416 s.
32. Goziev E., Anarmetova Sh. Bolalar psixologiyasi. - T.: 1992. - 32 b
33. Goziev E., Daminov K. Bolalar psixologiyasi.-T.:1992. -42 b
34. Goziev E., Yo’ldosheva Ya. Bolalar psixologiyasi. - T.: 1992. - 36 b.
35. Goziev E., Anarmetova Sh. O’yin nazariyalari. - T.: 1995. -39 b
36. Karimova V.M. Psixologiya. O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
37. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o’quv qo’llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96 b.
38. Karimova V.M., Akramova F.A. “Psixologiya”. 1-qism. Ma’ruzalar matni. – Toshkent: TDIU, 2005. – 208 b.
39. Karimova V.M., Akramova F.A. “Psixologiya”. 2-qism. Ma’ruzalar matni. – Toshkent: TDIU, 2005. – 125 b.
40. Kodirov B.R. Oila va iste’dodli bolalar: muammo va echimlar G’G’ O’zbek oilalarining etnopsixologik muammolari. Resp. ilmiy-amal. ma’ruz. kisk. bayoni. - T.:1993. -10- 11 b.
41. Zaynobiddinov J. Identifikatsiya oilada bola shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi omil sifatida G’G’ O’zbek oilasining etnopsixologik muammolari. - Resp. ilmiy-amal. anjum. ma’ro’z. kisk. bayoni. - T.: 1993. - 135-136 b.
42. Rasulova M. Oilada bola tarbiyasiga munosabatlarni takomillashtirishning psixologik tomonlari G’G’ O’zbek oilasining etnopsixologik muammolari. - Respublika ilmiy-amal. anj. ma’ruz. kisk. bayoni. - T.: 1993. - 154-156 b.
43. Nathawau S.R. and Mehl P.E. the Minnesota multiphasic personalitu inventopu. Woshington. 1951.

44. Wesson A.E. Ricks D.F. Mood and personalitu. New Vork. 1966.  
45. Tuler L. Psuchologu of human differences. 3 rd ed. New Vork. 1965.

**Internet saytlari .**

**www. ziyonet.uz**


**www. pedagog.uz**


**www.rambler.ru**

**www.mail.ru.**


**ILOVALAR**

**Mehnatning funksiyalari**





. Shaxs mehnat faoliyatini tushuntirishning muhim beshta omili



Psixologik faoliyat tizimining tuzilmaviy chizmasi

